

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Xorijiy tillar fakulteti

Fransuz tili va adabiyoti kafedrası

Niyozova Dildora

“5120100 - fransuz tili” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun “Ritm fraza intonatsiyasining komponentlaridan biri sifatida” mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY
ISHI

Ilmiy rahbar: o’q. I. Sultonova

“Himoyaga tavsiya etildi”

Fakultet dekani:

_____ dots. A. Aliqulov

“ _____ ” _____ 2015 yil

Qarshi 2015-yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
BIRINCHI BOB. RITMNING UMUMNAZARIY- LINGVISTIK ASOSLARI.....	8
1.1. Ritm va uning fraza intonatsiyasini shakllantirishdagi tutgan o'zni.....	8
1.2. Nutq ritmi nazariyasi va uning lingvistik tafsilotlari.....	13
1.3. Nutq ritmining funksiyasi va vazifalari haqida.....	19
IKKINCHI BOB. HOZIRGI ZAMON FRANSUZ TILIDA RITM FRAZA INTONATSIYASINING KOMPONENTLARIDAN BIRI SIFATIDA....	32
2.1. Aksent birliklari va ularning tabiati.....	32
2.2. Ritmni hosil qiluvchi fonetik vositalar.....	41
2.3. Urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning o'zaro alternatsiyasi ritmik strukturaning asosi sifatida.....	50
XULOSA	56
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	61

KIRISH

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi davrida xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun ,chet ellik sheriklarimiz bilan hamkorlikda, hamjihatlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir. Ta'lim tizimi oldida juda muhim muammo- umumta'lim maktablarida o'quvchilarni chet tiliga o'qitishning barcha bosqichlarida qo'llanadigan metod va usullarni takomillashtirish masalasi paydo bo'ldi. Bu zaruriyatning vujudga kelish sabablaridan yana biri shunda-ki, maktab o'quvchilarining chet tillarini bilish darajasi Respublikaning bo'lg'usi ilmiy-texnik imkoniyati, mutaxassislarning intellektual ma'naviy saviyasini shakllantirishga, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan bo'ladigan madaniy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarining yanada rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli keyingi paytlarda chet tillarni o'qitish usullarini takomillashtirishga , uning sifatini oshirishga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda.

Yurtboshimiz I. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" nomli asarlarida ta'kidlanganlaridek: "Agar O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor bo'lajak buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak".

Shu jihatdan barcha chet tillari qatori fransuz tili ham mamlakatimizda o'zining nufuzli o'rniga ega. O'zbekistondagi fransuz tiliga ixtisoslashgan maktab va litseylar, oliy ta'lim muassasalaridagi fransuz tili fakultetlari hamda bo'limlarning mavjudligi fikrimizning isboti bo'la oladi.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi hozirgi zamon fransuz tilida ritm fraza intonatsiyasining komponenti sifatida

ekanligini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu mavzu maxsus tadqiqotning obyekt sifatida o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotning metodologik asosi. Ritm nutqning muntazam ravishda takrorlanib turadigan prosodik hodisasi sifatida turli fanlar bo'yicha olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Ritmni tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish unga nisbatan murakkab yondashuvni taqozo qiladi. Ushbu mavzu yuzasidan bir qancha olimlar, jumladan, K.K. Barishnikova, N.M.Bizova, N.D. Klimov, A.P. Belikov kabilar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ular ritmning turli aspektlarini va uning umumiy shakllanishini o'rganishgan. Lekin, hozirgi zamon fransuz tilida ritmni fraza intonatsiyasini shakllantiruvchi vositalardan biri sifatida o'rganish hali shu paytgacha fransuz tilshunosligidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Fransuz klassik fonetistlari ritmni frazadagi urg'uli, ya'ni ritmik guruhning oxirini belgilovchi bo'g'inlarning muntazam takrorlanishidir deyishadi. Ulardan farqli o'laroq, hozirgi zamon fonetistlarining ta'kidlashicha, nutq ritmi bu bir-biriga o'xshash prosodik hodisalarning o'zaro takrorlanishidir. Nutqda mazkur takrorlanishlar fonetik jihatdan turli xil omillar orqali yuzaga keladi. Bular segment (tovush) va supersegment (prosodik) vositalardir. Tovushlarning takrorlanishiga, nutqda unli va undosh tovush guruglarining o'zaro alternatsiyasini kiritish mumkin. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, ritm urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning o'zaro almashinuvidan yuzaga keladi. Fraza urg'usini olgan bo'g'inlar bilan urg'usiz bo'g'inlar orasidagi temporal va dinamik strukturalar o'rtasida muayyan qarama-qarshi munosabatlar yuzaga keladi. Bunday munosabatlarning nutq jarayonidagi o'zaro alternatsiyasi ritmni hosil qiladi. Fransuz tilida ritmni shakllantirishda muhim o'rinda turadigan vositalar bo'lib, asosan , aksent birliklari xizmat qiladi. Bular ritmik guruh va sintagmadir.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Ritmik guruh bitta ma'no borligini anglatuvchi va oxirgi bo'g'inga urg'u tushuvchi so'zlar guruhidir. Ritmik guruhning

hajmi, binobarin, nutq oqimida urg'uning miqdori eng avvalo, fikrning murakkabligiga bogliq. Ritmik guruhdan farqli o'laroq, sintagma ancha murakkabroq fonetik birlik hisoblanadi. Fraza ritmi, aynan shu aksent birliklaridagi urg'uli bo'g'inlarning ketma-ketligi orqali vujudga keladi. Aynan shu mavzu mazkur bitiruv malakaviy ishining o'rganish predmeti hisoblanadi. Bunday ilmiy tadqiqot o'zining ham nazariy, ham amaliy ahamiyatiga ega.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati: Nazariy jihatdan u nazariy fonetika faniga uning munozarali jihatlariga muayyan oydinlik kiritishi mumkin. Shu bilan birga u talabalarning nazariy bilimlarini yanada mukammallashtirishga yordam berishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: amaliy jihatdan esa, mazkur tadqiqotning natija va xulosalardan talabalarga fransuz tili fonetikasini o'rgatish jarayonida darslik va qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari: bitiruv malakaviy ishining maqsadi- hozirgi zamon fransuz tilida ritm fraza intonatsiyaning tashkil qiluvchilaridan biri ekanligini fonetik nuqtai nazaridan o'rganishdir. Buning uchun esa quyidagi qator vazifalarni bajarish taqozo qilinadi:

- 1) Ritmik muommasiga taalluqli umumnazariy-lingvistik tavsilotlarni o'ranish;
- 2) Hozirgi zamon fransuz tilida ritm fraza intinatsiyasining komponenti sifatidagi salohiyatini tahlil qilish;
 - a) Ritmik birliklarning turli qiyinchiliklarini aniqlash;
 - b) Ritmni shakllantiruvchi fonetik vositalarni o'ranish;
 - c) Ritm va uning fraza intonatsiyasini tashkil qilishda tutgan o'rnini aniqlash;

Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish qism, ikki bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

Kirish qismida mavzuning tanlanish sababi, uning dolzarbligi tadqiqotning maqsad va vazifalari haqida soʻz boradi.

Birinchi bobda nutq ritmi va uning fraza intonatsiyasini shakllantirishda tutgan oʻrni, nazariyalarning lingvistik tafsilotlari muhokama qilinadi.

Ikkinchi bob hozirgi fransuz tilida ritm fraza intonatsiyasining komponenti sifatidagi masalani oʻrganishga bagʻishlangan. Bu bobda asosan, aksent birliklari va ularning tabiati, ritmni hosil qiluvchi fonetik vositalar, urgʻuli va urgʻusiz boʻgʻinlarning oʻzaro alternatsiyasi fransuz tili ritmik strukturasi oʻziga xos jihatlaridan biri ekanligi toʻgʻrisida fikr yuritiladi.

Hozirgi fransuz tilida ritmni fraza intonatsiyasini shakllantiruvchi vositalaridan biri sifatida oʻrganish jarayonida olingan natijalar umumiy xulosalar qismida mujassamlashtirilgan.

Bitiruv malakaviy ishi foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatining ilovasi bilan oʻz nihoyasiga yetadi.

BIRINCHI BOB. RITMNING UMUMNAZARIY-LINGVISTIK ASOSLARI

1.1. Ritm va uning fraza intonatsiyasini shakllantirishdagi tutgan o'rni

Nutq o'zaro muloqot qilishda aloqa quroli vazifasini bajaradi. Muloqot paytida kishilar tovush paychalari orqali yuzaga chiquvchi til vositalari yordamida fikr almashishadi. Nutqning yuzaga chiqishini kuzatayotib unda ikkita qarama-qarshi jarayonni uchratish mumkin: birlashish va ajralish jarayonlari.

Nutqiy faoliyat davomida ayrim tovushlar(unlilar va undoshlar) so'zlarda birlashgan holda uzluksiz nutqiy jarayonni hosil qiladi. Nutq oqimining gaplarga bo'linishi, shu bilan birga bir qator ma'no birliklari tilda fonetik vositalar yordamida shakllanadi.

Tilshunoslar orasida keng tarqalgan fikrlarga ko'ra gapning muayyan bo'laklarga ajralishi uning ma'nolariga emas, balki nafas olish va chiqarish fiziologiyasiga yoki nutq ritmi kabilarga bog'liq bo'ladi.

G.M.Tomsonning yozishicha, gap fonetik jihatdan pauzalar bilan ajratilgan tovushlar qatori sifatida o'zidan mayda bo'lgan boshqa tovushlar qatoriga bo'lingan ritmik birlikni tashkil etadi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqat e'tibori o'zida murakkab til hodisalarni mujassamlashtiruvchi ritmni o'rganishga qaratilgan. Fonetistlar ritmni frazadagi ritmik guruhning oxirini belgilovchi urg'uli bo'g'inlarning qayta takrorlanishidir deb ta'kidlashadi. Ritm bir-biri bilan ketma-ket kelgan va qaysidir jihatdan bir-biri bilan teng bo'lgan bir-biriga ma'lum darajada o'xshash bo'lgan birliklarning ketma-ketligidir. B.M.Jirmuniskiy shunday degan edi: „Bizning nutqimiz eng avvalo, o'z yo'lida kommunikativ funktsiya deb aytiladi, fikrni bayon qilish, binobarin, nutq tovushlarining o'zaro almashinuvi hech qachon faqat ritmik vazifalar bilan boshqarilmaydi. Hozirgi zamon tadqiqotlarida nutq ritmi-bu bir-biriga o'xshash va teng hodisalarning muntazam takrorlanishi hisoblanadi“. Ritmga berilgan ta'riflardan biri M.Grammon tomonidan berilgan ta'rif bo'lib, u tilshunoslikda hozirgi kungacha saqlanib

kelmoqda, ya'ni ritm-bu urg'uli va urg'usiz bo'g'inlardagi intervalning ko'p yoki oz darajada bir tekis takrorlanishidir. Nutqning uzluksizligi fonetik jihatdan turli faktorlar, ya'ni segment (tovush) va supersegment (prosodik) vositalar hamrohligida o'z ifodasini topadi. Tovushlarning takrorlanishiga, unli va undoshlarning almashinuvi ya'ni bir xil tovushlarning takrorlanishi yoki tovush guruhlarini kiritish mumkin. Lingvistik munosabatda ba'zi til belgilarini ifoda etishga xos bo'lgan super elementlarning ishlatilishi muhim rol o'ynaydi.

Intonatsiyani hosil qiluvchi kommunikativ tipdagi gaplarning turlari ko'p: so'roq gap, darak gap, undov gap, xohish gap. Intonatsiya-deganda turli gaplar orasidagi munosabatlar va gaplarning, ayniqsa, mayda birliklariga, ya'ni sintagmalariga bo'linish munosabati tushuniladi. Shu orqali, intonatsiya nutqdagi his-tuyg'uni ifodalash uchun xizmat qiladi, bu –uning ikkinchi funksiyasidir. Intonatsiyani nutqning shakllantirish va bo'linishida ishlatish odatda har bir tilning ichki strukturasi bog'liq bo'ladi.

Ko'rinib turibdi-ki, bu maqsadlarda qabul qilingan intonatsiyaning tiplari ham tilning strukturasi kiradi. Emotsiyaning hosil qiluvchi vosita sifatida intonatsiyaga nimalar taalluqliligi, masalan, umuminsoniy qonuniyatlar to'g'risida ko'p gapiriladi. Lekin ko'rinib turibdi-ki his-hayajonni ifodalash usullari intonatsiyaning forma va shakllari bilan o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi, natijada agar bitta his-tuyg'uni ifodalovchi qo'shimchani olgan intonatsiyani turli har xil tillardagi tiplari vujudga keladi. Tajribalar shuni ko'rsatadi-ki, his-tuyg'uli munosabatda bitta intonatsion holatning o'zi turli tillarda bir xil baholanmas ekan. Tilshunoslik tarixida intonatsiya ta'rifini ikki jihatga ajratish mumkin: supersegmentli his-tuyg'uga xos bo'lgan neytral nutq va his-tuyg'uni ifodalovchi boshqa til vositalari ta'rif. Lekin bunday ta'riflar hozirgi kunda mavjud emas ayniqsa, his-tuyg'uli intonatsiyaga aloqador bo'lgan ilmiy ishlar oldida yana bir nechta savollar ko'ndalang bo'ladi.

Nutq so'z urg'usi intonatsiyaning tarkibiga uning bir elementi sifatida kiritiladi. Shu mazmunda uni fraza urg'usi, deb atasa ham bo'ladi. U intonatsiyaning u yoki bu ko'rinishdagi tarkibiga xilma-xilliklar bag'ishlagan holda kiradi.

Xuddi shu fraza urg'usi boshqa turli urg'uli (Sintagma urg'usi, ma'no urg'usi va emfatik urg'u) bilan uzviy aloqada nutq ritmini hosil qiladi. Fonetik jihatdan nutq o'zida tovushlar oqimi bilan ohang tizimini mujassamlashtiradi. Bu tizim o'ziga tobe bo'lgan vaqti-vaqti bilan ketma-ket keladigan tilning maxsus fonetik birliklariga bo'linadi. Nutq tizimining strukturasi tashkil qiluvchi birliklar quyidagilardir:

- 1) frazalar
- 2) taktlar
- 3) bo'g'inlar
- 4) tovushlar

Shunday qilib, nutq tovushlari yakka holda ishlatilmaydi, balki bo'g'inlar, taktlar va frazalar tarkibida ishlatiladi.

1. Fraza-bu eng katta fonetik birlikdir; frazalar nutq oqimida bir-birlaridan pauzalar orqali ajraladi; pauza paytida gapirayotgan shaxs keying frazani talaffuz qilish uchun nafas oladi. Frazalar intonatsiyani yordamida mujassamlashtiradi, har bir talaffuz qilingan fraza intonatsiyaning aniq bir sxemasiga ega: Intonatsiya tilning prosodik birligiga (sohasiga) taalluqlidir va bu o'ta murakkab hodisadir. U quyidagilardan tashkil topgan:

a) Ovozning kotarilishi va pasayishidan;-bu har bir tilda o'zining muayyan tuzilishiga ega bo'lgan nutq melodikasidir. Masalan, rus tilida gapning boshlanishida tovushning oson ko'tarilishi, o'rtasida bir tekis va darak gap oxirida esa birdaniga pasayishi yoki so'roq gap oxirida birdaniga ko'tarilishi kuzatiladi ;

b) kuchli va kuchsiz, cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning alternatsiya taktning asosi bo'ladi va u fraza ritmini hosil qiladi. Rus tilida frazaning eng ko'p ahamiyat kasb etadigan qismi bu uning fraza urg'usini oladigan oxiri hisoblanadi;

d) nutq oqimining tezlashuvi va sekinlashuvi nutq tempini hosil qiladi;

e) talaffuzning kuchayishi va susayishi yoki nafasning zo'rayishi, bo'shishi nutqning intensivligini tashkil qiladi, ya'ni bu ham o'z navbatida nutq ritmini hosil qilishda yordam beradi;

f) frazani alohida bo'laklarga yoki yarim frazalarga ajrata oladigan fraza ichidagi pauzaning mavjudligi yoki uning mavjud emasligidan; ichki pauza frazaning ritmida aks ettiriladi;

g) fikrning umumiy tembri, ya'ni fikrga bog'liq holda "g'amgin", "xushchaqchaq", "o'yinqaroq", "qo'rqinchli" bo'lishi mumkin va hokazo.

2. Fraza taktlarga bo'linadi. Takt – bu frazaning bitta urg'u ostida birlashgan (bitta yoki bir nechta bo'g'indan tashkil topgan) qismidir. Taktlar, kuchli urguli bo'g'inlar orqali mujassamlashadi va minimum intensivlik bilan chegaralanadi. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar ko'pchilik tillarda alohida taktlarga ajraladi va o'zining alohida urg'usiga ega bo'ladi; unchalar muhim bo'lmagan so'zlar qo'shib kelgan holda, u bilan bitta taktni hosil qiladi. Oldingi urg'uli bo'g'inning keyingi urg'uli bo'g'inga bog'liqligi – prokliza deb ataladi, urg'usiz qo'shib kelgan so'zning o'zi esa,- proklitika deyiladi. Oldingi urg'usiz bo'g'inning keyingi urg'uli bo'g'inga bitta aksentuatsion birlik bo'lib bog'lanligi - enkliza deyiladi, orqadan qo'shib kelgan urg'usiz so'zning o'zi esa , enklitika deyiladi(enklizaga uchraydigan so'zlar).

3. Taktlar bo'g'inlarga ajraladi. Bo'g'in –bu taktning bitta yoki bir nechta tovushlardan iborat bo'lgan bir qismidir, lekin hamma tovushlar ham bo'g'in hosil qila olmaydi yoki bo'g'inli (bo'g'in hosil qiluvchi) bo'la olmaydi. Garchi har bir

gapiryotgan shaxs bo'g'inlab bir talaffuz qilsa ham, bo'g'inning birmuncha qiyin kechadi. Bo'g'in taktning bitta yoki bir nechta tovushlardan tashkil topgan va bir nafasda talaffuz qilinadigan qismi sifatidagi an'anaviy ta'rif muayyan ziddiyatlarga sabab bo'lishi mumkin, chunki bo'g'inlarni nafassiz ham talaffuz qilish mumkin, ammo bir bo'g'inni bir nafasdan ortiq talaffuz qilib bo'lmaydi.

L.B.Sherba pulsatsiya nazariyasini taklif qildi, ya'ni u bo'g'inlarning nutq apparatidagi muskullar holatiga bog'liq bo'lgan fiziologik bo'lakchalardir. Bo'g'inlar bo'g'in ajratuvchilar bilan chegaralanadi. Bo'g'in ajratuvchilarning belgilanishi turli tillarda har xildir. Demak, rus tilida bo'g'in ajratish odatda bir-biriga sonorlik tomonidan qarama-qarshi bo'lgan yonma-yon turgan tovushlar o'rtasida bo'ladi.

Bo'g'inlar tovushlarga bo'linadi. Shunday qilib, berilgan tasnifga ko'ra nutq tovushi – bu bitta artikulyatsiyada talaffuz qilinadigan bo'g'inning bir turidir. Nutq tempi so'zlovchiga xos bo'lgan individualiklardan biridir. Shu bilan bir qatorda har xil temp talaffuz stiliga qarab aniqlanadi, bu o'z navbatida nutq situatsiyasiga ham bog'liqdir.

Nutq oqiminig asosiy birliklari bu – ritmik guruh va sintagmadir, ular yaxlit bir mazmuni ifodalovchi gap va uning intonatsiyasi orqali bir-biriga bog'lanadi. Intonatsiya nutqda faqat umumiy munosabatlarni yetkazib beradi; gap tugallandimi yoki uning davom etishi taxmin qiliniyapdimi, ifodalagan fikr sintagma bo'la oladimi, avvalgi fikrni rivojlantira oladimi yoki u fikrning umumiy yo'nalishidan tushib qoladimi. Shunday qilib, intonatsiya orqali yetkazib beriladigan mazmun munosabatlari sintaktik mazmun muosabatlarga nisbatan umumiy xarakterga ega. Shuning uchun ham bunday turli sintaktik munosabatlar, aniqlovchi va aniqlanmish o'rtasidagi munosabat fe'l bilan to'ldiruvchi ortasidagi munosabat intonatsiya jihatdan bir –biridan farqlanmaydi.

M.A.Viller shunday deb yozgan edi: "Har bir tilda intonatsiyaning unchalik ko'p bo'lmagan kombinatsion tiplaridan foydalaniladi va bir biriga aloqador bo'lgan nutq intonatsiyaning xilma –xilligiga erishiladi".

So'zda urg'uning ahamiyati haqidagi savol P.Dellatning ilmiy ishlarida aniq ko'rsatib berilgan. Agar bunga frazaning bo'linishi nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, eng avvalo, bu guruhlarining kichkina hajmi ko'rsatib o'tiladi, ayniqsa, mustahkam guruhlar bu - yordamchi so'z + asosiy so'z (p. ex: *dans la mer*); bu ma'noda yordamchi so'zlar bu – artikllar, predloglar, ular yarim ma'no anglatuvchi so'zning urg'usi bilan bitta urg'uli birlikni hosil qiladi. Lekin bu urg'uli birliklar (guruhlar) frazaning asosini tashkil etuvchi aksent birliklardir. Turli kashfiyotchilar nutq oqimining bo'linishi savoliga turlicha yondoshishadi va har biri fransuz tilida frazaning ritmik shakllanishiga adekvat ta'rif beradi.

Bu bo'limda intonatsiyani shakllantiruvchi vositalardan biri sifatida o'rganildi. Bu borada ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Lekin shunga qaramay, ritm intonatsiyaning tarkibiy qismlaridan biri ekanligi to'g'risidagi masala haligacha muommoligicha qolib kelmoqda. Ritmni o'rganish u bilan bog'liq bo'lgan talaygina boshqa masalalarni, jumladan, urg'ular va ularning distruksiyasi ularning tabiati, funksiyalari kabi qator vazifalarni o'rganishni taqozo etadi.

Demak, intonatsiya har bir tilda mavjud prosodik hodisa bo'lib, ritm uni tashkil qiluvchi komponentlardan biridir.

1.2.Nutq ritmi nazariyasi va uning lingvistik tafsilotlari

Ritm – tilshunoslik fanining eng kam tadqiq qilingan va shu bilan bir qatorda eng qiziqarli pragmatik muommalardan biridir.

Nutq ritmi tushunchasining o'zi hozirgi kunga qadar noaniqligicha qolmoqda. Ko'pchilik fonetistlarning ta'kidlashlaricha, ritm nutq birliklarining eng yaxshi tartibga solingan va eng muhim belgisidir.

Nutq ritmini o'rganish bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ritmning nutqda yaxshi tartibga solinganligining u yoki bu shaklda nomoyon bo'lishi tilshunoslik fanining obyektlaridan bir qismidir.

Yaxshi tartibga solinganlik- bu nutqiy koordinata, lekin tilning xilma-xil variantdaligi emas.

Ritm muammosi doirasida –tilning spesifik aspektining tushishi eng avvalo talaffuzni o'rganishda inkor ravishda bog'liq bo'ladigan xodisa u ritmning yaxshi tartibga solinganlik konsepsiyasi bilan bog'liq. Biz bilamizki ,frazada bosh bo'laklar bilan birga, ikkinchi darajali bo'laklarni ham uchratishimiz mumkin.Shu yo'l orqali fraza ritmiga munosib bo'ladigan aks ettirishlar, ya'ni mantiqiy ierarxiya va mantiqiy ko'rinish yuzaga chiqadi.

Agar N. D.Klimovning tadqiqotlarini kuzatadigan bo'lsak unda ritm tushunchasi ancha kengroq berilgan. Uning ta'kidlashicha, ritm bu- xarakatning bir butunligidir.

Bu konsepsiya doirasida yaxshi tartibga solinganlik ritmning ikkinchi ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Ritmni sistemali o'rganishga yondashish shuni ko'rsatadi-ki, strukturasi va substansiya bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgani sababli, ritm ham sutruktural substansiyali hodisa hisoblanadi.Ritm o'zining spetsifik substansiyaga ega, ya'ni u ritmik strukturani belgilab beradi.

Nutq ritmik ko'rinishining spetsifikasi ham shundan kelib chiqadi. Ritm melodiya bilan yonma –yon emas, lekin u bir vaqtning o'zida nutq tovush substansiyasi uchun keng ravishda taalluqlidir.

Nutqning ma'no va fonetik tomonlarining bog'liqligini aniqlash nazariy va amaliy badiiy adabiyot mutaxassisi B. K.Serejnikovning ilmiy ishlarida yaxshi ko'rib chiqilgan.

Uning “Мастерство чтеца” va “Несколько основных положений и правил художественного чтения “ maqolasida bu savol bo'yicha juda ko'p qiziqarli mulohazalar keltirilgan. Serejnikovning bu maqolasida ritm va melodiya tushunchasi haqida yaxshi mulohazalar topish mumkin. Uning ta'kidlashicha, ritm-melodiyaning xarakati, shakli yoki cho'ziqlik va kuch bilan qaytariladigan kombinatsiyasidir. Ritm bizning munosabatlarining mantiqiy mohiyatini va his-tuyg'uga boy jihatlarini aniqlaydi. Biz bittasini qo'shsak, boshqasini olib tashlaymiz, bittasini kuchaytirsak, boshqasini shu holicha qoldiramiz, bittasini sekinlashtirsak, boshqa bittasini tezlashtiramiz. Nutq ayniqsa, jonli nutq o'zida jonli organizmni mujassamlashtiradi, ya'ni qayerda harakat bo'lsa, o'sha yerda katta ish amalga oshadi. Mana shu jonli nutqning hayotiy va hijolatli tomoni ritmda aks ettiriladi.

Ritmsiz hayot bo'lmaydi. Agar nutq melodiyasiz bo'lsa, u ma'nosiz bo'ladi, tembrsiz bo'lsa, u xissiyotsiz bo'ladi, agar nutqda ritm bo'lmasa, u hayotiy bo'lmaydi. Mantiqiy ritm - bu nutqdagi so'zni hosil qiluvhilarga bog'liq bo'ladigan ma'nosining aks ettirilishidir.

Shubhasiz-ki, fikrning bosh bosqichlari ahamiyatliroq ohangdorlikni talab qiladi. Shu bilan bizning qarashlarimiz logik ritmning asosiy tamoyilini, ya'ni markazdagi (gapning o'rtasidagi) so'z bilan zich bog'lanadi.

Bu so'zlarning munosabatidan, ya'ni o'rtadagi o'zidan oldingi so'z bilan bog'langanligidan markazga intiluvchanlik tamoyili emas, markazga yopishganlik

tamoyili kelib chiqadi. Bunday ikkinchi darajali soʻzlar kuchsiz va tez oʻqiladi. Markazga intiluvchanlik tamoyili markazga birlashganlikda oʻqish jarayonida juda katta apamiyat kasb etadi.

Biz bu sinov ustida ish olib borishimizdan maqsad unda nutqning mantiqiy opangdorligiga talab toʻgʻriroq va yanada aniqroq bayon etilgan. Serejnikov pauzalar toʻgʻrisida soʻz yuritib: “Pauza – fikrning farqiga borishda yordam beradi, nutqqa “meʼmoriy aniqlik” berib , talaffuz yanada oydinlashtiradi, nutqning tezlashib ketish jarayonining oldini oladi va eng asosiysi, ritmni hosil qiladi”,- deydi M. A.Viller esa, -pauzani tovushning toʻxtatishidir, -deydi.

Lekin nutqda tovush chiqarishda hech qanday bir aniq toʻxtash boʻlmay bir aniq toʻxtash boʻlmaydi, pauzalar esa nutqda, melodiyaning keskin oʻzgarishi, ritmning oʻzgarishi, ritmning oʻzgarishi va intensivlikning pasayishi yoki koʻtarilish natijasida hosil boʻladi.

Shunday qilib pauzalarning intonatsion tushunchalari akustik tushunchalariga nisbatan ancha kengroq va ana shu intonatsion tushuncha akustik tushunchaga mos kelmaydi. Pauzaning asosiy vazifasi nutq boʻlaklarining koʻp yoki oz, oʻziga xos maʼnolarini bir- biridan farqlashdir.

Lekin jonli nutqda maʼno pauzalardan tashqari, boʻlinuvchan birliklar oʻrtasida beqaror pauzalar, deb nom olgan pauzalar ham namoyon boʻladi. Bunday pauzalar uchun melodiya, tempda va tembrda asosiy oʻzgarishlar yuzaga keladi.

Tinish belgilari bilan mos keladigan pauzani Serejnikov logik emas, grammatik, deb tasniflaydi.

1. Ega va kesim oʻrtasidagi;
2. Soʻz tartibining buzilishi bilan;
3. Izoh talab qiladigan soʻzlar orasida;

4. Biror bir so'zning tushib qolishi;

5. "va", "yoki" bog'lovchilari oldidan;

G. V. Artobolevskiy o'zining "Основны художественного чтения" maqolasida intonatsiya to'g'risida aniq to'xtalib shunday degan edi,- «Intonatsiya – deganda nutqdagi ifoda vositalarining butun majmuasi so'zlovchining holati va biror bir fikriga qarab uzatilganligi tushuniladi.

Intonatsiyani hosil qilishda kuchning, balandlikning, tovush cho'ziqligining, tovush tembri sifatining turli o'zgarishlari ishtirok etadi.

Artobolevskiyning nasriy ritmini urg'uli va urg'usiz nutq elementlari hamda pauza cho'ziqligi munosabatidir, deb hisoblaydi: Urg'u va pauza bir-biri bilan almashgan holda nutqni talaffuz taktlariga ajratadi. Har bir taktda urg'uli so'z bo'ladi.

Har bir so'z birikmasi yoki frazada so'z qatorining oxirgi so'zida urg'u bo'ladi. Binobarin, urg'uli qatorlar sonini urg'uli so'zlar ko'rsatadi, yoki nechta qatr bo'lsa, shuncha urg'uli so'zlar bo'ladi.

Xohlagan odatiy ritm tuzilishining yoki xohlagan oxirgi so'zdan urg'uning boshqasiga ko'chishi aloxida ma'no kasb etadi. Bunday holat "logik urg'u" hisoblanadi. Fransuz tilidagi logik urg'udan butunlay farq qiladi, ya'ni so'znin bosh bo'g'inidagi unlining cho'ziqroq aytilishi va uning balandligining o'zgarishi bilan L.B Sherbaning ta'kidlashicha, unlining aniq va o'rtacha tembrida, ya'ni urg'usiz unilarning bo'laklariga qarama-qarshi turadigan tembrida logik urg'u ifoda etiladi.

Artobolevskiyning fikricha,urg'uning to'g'ri joylashishi quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

1.Oddiy yig'iq gaplarda urg'u, asosan, kesimga tushadi,chunki frazaning o'rtacha ritmiga mos keladi. Bunday gap inversiyaga uchraydigan bo'lsa, urg'u

egaga tushadi. Inversiyasiz ega faqat ma'no sababli urg'uni o'ziga tortishi mumkin.

2. Matnning boshlanishida o'quvchining e'tiborini yanada tortish uchun yangi tushunchalar ham urg'u berib o'qiladi.

3. Eng ko'p aniq urg'u beriladigan so'zlar bu- antonimlardir, ya'ni qarama-qarshi ma'noli so'zlar.

4. Bunday qarama-qarshilikning, ya'ni antonimlarning o'rni bo'lishi mumkin va u faqat gumon qilinayotgan narsaga munosabati tufaylidir.

5. Matndan holi bo'lgan so'zlar, frazaning asosiy ma'nosini o'zgartirmagan holda, urg'u olmaydi.

6. So'z ma'nosining muhimligiga qarab, urg'u bilan ajratish, faqat urg'uning kuchayishi bilan emas, balki boshqa vositalar yordamida ham amalga oshiriladi: talaffuzning susayishi, melodik ko'rinish, pauza va hokazo.

Fe'lsiz birikmalar komponentlarini o'rgangan holda tadqiqotchilar ularni fe'lli birikmalar bilan bog'liq tomonlari borligini ta'kidlashadi.

Biroq tadqiqotchilarning qarashlari bu bog'liqlikning xarakteriga, uning mexanizmlari va sabablariga ko'ra farqlanadi. Hozirgi kunda olimlar nutq bilan birga keladigan harakatlar va ularning nutq bilan bog'liq mexanizmlari yuzasidan ilmiy ishlar olib kelmoqda. Bu rejadagi ekspremental ishlar, asosan hatti-harakatlarning ko'rinishi yoki tasvirlanishi bilan chegaralanadi.

Tadqiqotchilar tomonidan kommunikativ harakatlarning o'zaro ta'sirini obyektiv ravishda kuzatishga yordam beradigan metodika ishlab chiqilgan. U nutq signalidagi parametrlarning (asosiy ton chastotasi va intensivlik) sinxron qayt etishicha, ya'ni nutqning prosodic strukturasi haqida axbarot beruvchi vositalarga asoslangan.

Tadqiqotchilarning fikricha, kommunikativ akt o'zida o'zaro bir- biriga ta'sir etadigan xarakterlarning umumiy sistemasini mujassamlashtiradi.

Kommunikativ xarakatni shakllantiruvchi ikkilamchi asosiy yetakchi kuch uning umumiy yo'nalishi, ya'ni fikrni uzatishda bir mexanizmda ta'sir etuvchi barcha kommunikativ vositalar, ular shunday natijalariga erishishga yo'naltirgan. Kommunikatsiyaning natijasi imperativ factor, ya'ni funksional sistemada turli kommunikativ vositalarning birlashishi hisoblanadi.

Kommunikativ sistema, filogenent qadimiylilik va ma'nodan, shu o'lchamlarida hal qilingan kommunikativ vazifalardan farq qilingan kommunikativ vazifalardan farq qilingan holda o'zida turli o'lchamlar yoki mexanizmlar qatorini mujassamlashtiradi.

Prosodiya – keng ma'noda xuddi uni hosil qiluvchilar, ritm, urg'u va pauza bilan barobardir. Tadqiqotchilarning fikricha, uning funksional bazasiga kiradigan nutqiy va nonutqiy umumiy kommunikativ vosita mavjud. Ritm ana shu vositalar, asosiy ton chastotasi va intensivlik, signal va o'zgarish, harakat uchun tezlik va kuchayishga muvofiq holda ularni, shakllantiruvchi, muayyan, qolipga keltiruvchi hisoblanadi.

Kuzatishlar mobaynida tadqiqotchilar bir qator tajribalar olib borishdi. Bu tajribalarning ko'rsatishicha fransuz tilida ritm muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni u nutq oqimidagi fikrni yagona differensial birligi hisoblanadi.

Tilshunoslarning fikricha, nutqiy jarayonda so'zlarning ritmik strukturasi muhim rol o'ynar ekan. Shuni ham ta'kidlab o'tish joiz-ki, hatto bolalar ham so'zlarning ritmik strukturasi tovush strukturasi nisbatan ancha ilgariroq o'rganib olishadi .

Bu bo'limda nutq ritmi nazariyasi va lingvistik tafsilotlar to'g'risida so'z yuritildi. Ritm nazariyasi bo'yicha ilmiy ishlar olib brogan bir qancha olimlarning

fikr va mulohazalari muhokama qilindi. Demak, shulardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak, ritm haqiqatan ham hozirgi kunga qadar tilshunoslikdagi eng kam o'rganilgan va eng qiziqarli muommolardan biri hisoblanadi.

1.3. Nutq ritmining funksiyasi va vazifalari haqida

Ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqat e'tibori o'zida kompleksi hodisasining mujassamlashtiruvchi ritmni o'rganishga qaratilgan.

Masalan: Kvantativ ritm haqida fikr yuritadigan bo'lsak, bunda cho'ziq unlilar muntazam ravishda qisqa unlilar bilan almashadi. Ritmning bunday turi she'riy asarlarga xosdir.

Masalan: J'aime le son du cor / le soir au fond des bois //

Soit qu'il chante les pleurs / de la biche aux abois //

Ou l'adieu du chasseur/ que l'écho faible accueille//

Et que le vent du nord / porte de feuille en feuille//

(Alfred de vigny)

Bu 6 – va 12 – bo'ginlardan keyin sezurali aleksandr she'ri. Bu misradagi 6 – bog'indagi cho'ziq unlining 12 –bo'g'indagi cho'ziq unli bilan munosabati o'zia xos ritm hosil qilgan. (16; 174)

She'rlarga , ayniqsa, tembrli ritm (she'rning oxiridagi tovushlarning munosabatidan yaralgan ritm) xosdir. Ritmning turi kvantativ ritm bilan bog'liqdir.

Masalan:

La tempête s'éloigne, et les vents sont calmés [e]

La forêt qui gémit pleure sur bruyère [ε:]

La phalène dorée dans sa course légère [ε:]

Traverse les près embaumés

[e]

(Alfred de Musset)

Bu misradagi (calmes – embaumes va bruyère – légère) so'zlarida qofiyadosh bo'lib kelgan [e] – [ɛ:] qisqa va ch 'ziq tovushlar she'rga o'ziga xos uslubiy bo'yoq bergan.

Klassik fransuz fonetistlar frazada urg'uli, ya'ni ritmik guruhning oxirini belgilaydigan bo'g'inlarning bir tekis qaytarilishidir, deyishadi.

Hozirgi kundagi tadqiqotchilar esa, ” nutq ritmi - bu o'xshash va o'zgarmas o'lchovli hodisalarning takrorlanishidir ”, deb fikr yuritishadi.

Umuman olganda, bu har ikkala fikrda ham teran ma'no bor. Shulardan kelib chiqib, aytishimiz mumkin – ki, ritm – bu bir- biriga o'xshash urg'uli bo'g'inlarning bir tekis qaytarilishidir.

Fransuz tili ritmi kvantitativ ohangdorligi bilan xarakterlanadi, ya'ni matnda aks ettirilayotgan jarangdorlik ohangi va miqdor xarakterlarini inobatga olish ko'zda tutilgan.

Fransuz tilida olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, quyidagi xulosaga kelish mumkin : tadqiqotchilar eng avvalo, og'zaki nutqda ritmni shakllantirishning ikkita asosiy turini ajratishadi:

a) yozma nutqqa tayangan holda ritmni shakllantirish (o'qish)

b) yozma nutqqa tayanmagan xolda ritmni shakllantirish (gapirish)

Monologik va dialogik nutqni kuzatadigan bo'lsak; ikki xil variantda leksiya o'rganiladi, ya'ni og'zaki hokoyalar, auditoriyalarda rasmiy salomlashuv va qiyoslash uchun gazetadagi tekstning o'qilishi ham ko'rinib chiqilishi mumkin.

Chet tilini o'rgatishda, ayniqsa, diologik nutqda uni avval ko'rib chiqilgan nutq turi bilan qiyosiy ravishda o'rganish maqsadga muvofiqdir, aynan mana shunday munosabatda diologik nutq bo'rttirilganli bilan xarakterlanadi.

Diolog umuman, tempning mustahkam emasligi bilan ajralib turadi. Tempning o'zgaruvchanligini bir tomondan pauzaning borligi bilan i tomondan ko'p bo'g'inli ritmik guruhlarni talaffuz qilishda artikulyatsiyaning oshishi bilan va kam bo'g'inli ritmik guruhlarni talaffuz qilishda artikulyatsiyaning sekinlashishi; ritmik guruhdagi o'rta bo'g'inlarning cho'ziqligi analizi bilan tushunish mumkin. Lekin bunda faqat tendensiya, ya'ni izoxronlikka aniq erishilmaydi. Umuman diologning ritmi ko'p bo'g'inli guruhlar sonining kengayishi va kam bo'g'inli guruhlarining kamayishi bilan farq qiladi.

Diologik nutqda quyidagi qisqa so'zlar (oui, je vois...) bilan amalga oshiriladigan mimika va xatti-harakatlar asosiy ro'l o'ynaydi, ya'ni ular suhbatni olib borishga birmuncha ko'maklashadi.

Diologik nutqning ritmik monologik nutq ritmidan aksentli birliklarining strukturasi bilan farq qiladi. Bu tafovutlar oxirgi ajratilgan bo'g'inlarning bo'g'in tarkibida va ularning akustik strukturasi, bo'g'inlar bo'yicha cho'ziqlikning taqsimlanishida va bo'laklarga ajralmaydigan birliklarning bo'laklarga ajraluvchi qismlarini birlashishi xarakterida bo'ladi. Xuddi monologik nutqdagi kabi diologik nutqda ham aksentli birliklarning bo'g'in tarkibida xilma-xillik kuzatiladi. Diologik nutq akustik strukturasi doimiy belgilaridan biri – bu uchta parametrning birlashishidir: asosiy ton chastotalari, cho'ziqligi va intensivligi yoki cho'ziqlikning ton chastotasi bilan birlashishi: bitta parameter yoki cho'ziqlikning intensivlik bilan birlashishi yordamida ajratilgan bo'g'in diologda kam uchraydi. Monologik nutqda esa, bo'g'inni cho'ziqlik yordamida ajratish diologik nutqqa nisbatan ikki yarim marta sodir bo'ladi. Xuddi monologik nutq kabi diologik nutqda ham fransuz tiliga xos bo'lgan ko'tariluvchi ritm saqlanib qoladi. Aksentli birliklar urg'usiz bo'g'inlar bilan boshlanib, urg'uli bog'inlar bilan tugallanadi.

Har xil monologik va diologik nutqlardan ma'lum bo'lishicha, nutq ritmi intonatsiyaning komponentlaridan biri sifatida nutq birliklarida shakllantirilgan va tilning ma'lum bir sistemasiga taalluqli bo'lgan strukturani o'zida mujjassamlashtiradi. Aynan shu tilga xos bo'lgan, vaqti-vaqti bilan almashinib turadigan statik funksiya va intonatsiyaning boshqa komponentlari bilan birga kommunikativ mazmuni ifoda etadigan dinamik funksiya.

Ritmning bu har ikkala funksiyasi doimo fikrning yo'naltirilganligiga bog'liq holda bir-biriga ta'sir qiladi.

Fransuz tilida ritm muhim tushunchani aks ettiradi, ya'ni voqealar qatorida faqat u fikr ma'nosida asosiy differensiya manbai bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, quyidagi ikki qatordagi frazalarni qiyoslaydigan bo'lsak; (I va II)\

- | | |
|----------------------------------|------------------------------|
| I.a) C'est ta mère . | C'est à mer. |
| b) J'aime l'ananas. | J'aime la nana. |
| c) Il est trop peureux. | Il est trop heureux. |
| d) Elle parle d'une autre. | Elle parle du notre. |
| II .a) un abri cotier. | Un abricotier. |
| b) T'as vu le vieil harang saur. | T'as vu le vieillard en sort |
| c) Il pensa la blessure. | Il pense à la blessure. |
| d) Le pape a dit. | Le papa dit. |

Keltirilgan misollar shuni ko'rsatidi-ki, birinchi (I)qatordagi fikr ma'nosi auditorlar bilan differensiyalanmaydi; ulardan to'g'ri variant faqat tasodifiy bo'lishi mumkin. Ikkinchi qatorda (II)auditorlarga ko'rsatilgan frazalardagi fikr ma'nosi yuz foiz amaliydir.

Bu ko'rinishda fraza ma'nosini tushunish urg'uning tarqalishi, so'zlarning aksentli birliklarga guruhlashishi va fonatsiya jarayonida artikulyatsiyaning keskin taqsimlanishi bilan bog'liq.

Fransuz tilida artikulyatsiya, ya'ni talaffuzning keskinligi ko'proq bo'g'in uchun muhimdir, ya'ni ritmik guruhning oxiridagi urg'u olgan bo'g'in, shu bo'g'in bilan birga, ingliz tilida esa – ritmik guruhining boshidagi urg'u olgan bo'g'in.

Fransuz tilida urg'uli bo'g'in urg'usiz bo'g'indan o'zining cho'ziqligi bilan farq qiladi; u taxminan urg'uzis bo'g'inga nisbatan ikki barobar cho'ziqroq bo'ladi. Urg'uli bo'g'inning kuchli yoki zarb bilan talaffuz qilinishi katta rol o'ynaydi; aynan mana shu bo'g'in fransuz tili frazasi ritmining regulyatori bo'lib xizmat qiladi, urg'uli bo'g'inning to'g'ri shakllanishi umumiy aloqaning to'g'ri aniqlashiga olib keladi. Shuni ham inobatga olish kerak-ki, fransuz tilida "urg'uli bo'g'in" terminining o'zi bo'g'inga bog'liqdir, bu ayniqsa, kommunikatsiya jarayonida muhimroq sanaladi.

Urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning nutq oqimida tarqalishi pauza va melodik ko'rinishlar ritmining asosiy xarakterlarini hosil qiladi, bular: fransuz, rus, ingliz va boshqa tillarga ham xosdir. Aynan shu tilda gapiruvchi har bir shaxs muloqat jarayonida ma'lum darajada faqat shu vaziyatda kerak bo'lgan leksik birliklar va grammatik strukturani emas, u yana o'z fikrning umumiy ritmini ham hosil qiladi.

Masalan, har xil aloqa jarayonlaridagi frazalar;

1) Elle ne vient pas cet après-midi.

2) Il y a déjà du monde.

3) Que ce n'est peut-être pas si petit;

Har xil ritmik shaklga ega;

1) [ɛ(l) ne vʒé pa set apre mi`di]

2) [il` ja de`za plé de` mō:(d)]

3) [kə sə` ne pœ tɛ: trə pa si pə`ti]

Transkripsiya orqali qiyoslash frazadagi ritmik shakllanishning u stildan bu stil xisobiga qayta shakllanishiga olib keladi, eng avvalo, alohida bir tovushning yoki butun bir bo`g`inning tushib qolishi bilan bog`liq bo`lgan ritmik guruxning qisqarishi, asosan, tempning jadallashuvi bilan bog`liq bo`lgan og`zaki nutqqa xosdir. Shu bilan birga urg`uli bo`g`inlar melodiyasining ko`rsatilishi ritmni ta`riflashda melodik ko`rinishni ko`rsatadi.

Transkripsiyaning analizidan olingan quyidagi xulosa fikrning rivojlanish jarayonida ritmik guruhdagi izoxronlikda tendensiyaning shakllanishiga olib keladi. So`zlovchi o`zi faxmlamagan holda ritmik guruhda bo`g`inlar sonini iloji boricha barobarlashga harakat qiladi, bu yo`nalishda olib borilgan statistik izlanishlar nimalar to`g`risida guvohlik beradi?

Fonologik rejada so`zlar o`rtasida chegara to`g`risida N. C.Trubetskoy shunday degan: “Tovushning chegaralilik yoki delimitativ funksiyasini o`rganish “,ya`ni u fikr ajratish funksiyasidan farq qiladi.

Fransuz tilida ritmning amalga oshishi, eng avvalo, urg`uli va urg`usiz bo`g`inlar cho`ziqligining taqsimlanishining o`zgarishi orqali yuzaga keladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ritmik urg`uning joylashishi K.K.Barishnikovaning fikrlarida o`z aksini topadi. Masalan, Marten fraza elementlari orasidagi statistik va logik bog`liqliklardan kelib chiqib,olib borgan tadqiqot ishidagi misollarda shuni ko`rsatadi-ki, odatda,urg`u olmaydigan olmoshlarning urg`u olish imkoniyatini ko`rsatuvchi, fransuz tilida aksentuasiyaning rasmiylashgan qoidalar qatorini taklif etadi. Martenning fikrigacha , ritmik urg`u-bu melodiya modifikasiyalari bilan ajraladigan , minimal prosodik birlikdir. Agar Martenning fikricha, urg`uni ajratish nutq oqimidagi kichkina birliklarga bog`liq bo`lsa , sintaktik kriteriyalarga

asoslangan ekan, Monik Leon – ritmik guruhlar, deb hisoblagan aksent birliklarini quyidagicha kattalashtiriladi:

Une dame en robe de soire noire / a sonne a la porte; /

Le vase en poreclaine de Chine / est sur la table de petite salon./

S'il ya des roses en boutons / dans le jardin de grand-mere, /

Tu m'en apporteras un bouquet / (de la salade d'endive)

M. Leon tomonidan berilgan quyidagi va boshqa fazalarda aksent birliklarning munosabati melodiyaning modifikatsiyalari munosabati melodiyaning modifikatsiyalari bilan bog'liq.

Agar Leonning frazalari A. Dozaning fikrlari bilan analiz qilinadigan bo'lsa, u , u holda ritmik golda ritmik guruhda qo'shimcha urg'uning borligini ham gapirib o'tish kerak edi.

L. Sherbaning fikricha, frazalarning sintagmalarga ajralishi bir nechta ritmik guruhlarni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, frazaning aksent birliklariga ajralishi o'zida turli holatlarini ifoda etadi. Masalan: aksent birliklarining hajmi nutq oqimining almashinuviga tegishli emas. E. Kompanis , "so'zlarining muntazamligi (la distribution des prix) bitta aksent birlik hosil qilishi mumkin"- , deb ta'riflaydi.

Nutq ritmi –eng kam ko'rib chiqilgan va shu bilan birga zamonaviy fonetikaning eng qiziqarli pragmatic muommalaridan biridir.

Ritmni o'rganishda matematik apparat bilan bog'liq bo'ladigan statistik metodni tanlash muhimroqdir. Ritmning mavjudligini isbotlash uchun quyidagilar zarur:

1) Ritmik birliklarni tanlash ;

2) Davrni aniqlash

Ritm muammolarga bog'liq bo'lgan ko'pchilik ilmiy ishlarda, asosan, ritmik birliklar, ularning ichki strukturasi va ularning kombinatsiyasi ta'riflanadi. Ritmning asosiy elementar birligi sifatida nutq takti ko'riladi, ya'ni bo'g'inlarning bir urg'udan boshqa urg'uga muntazam o'tishidir.

Ritmik birliklarni shakllantiruvchi ramkalar—sintagma, gap va abzas ekanligi e'tirof etiladi. Ritmik shakllantirilgan tekstning turlaridan biri bu—sintagmadir.

Sintagma—bitta yoki bir nechta fonetik keng ma'no anglatuvchi so'zlarning keng doiradagi fonetik guruhga birlashishi hisoblanadi. Sintagmaning ritmni bajaruvchi vositalari orasida quyidagi xususiyatini ajratib ko'rsatish mumkin, ya'ni fonetik so'zlarda og'zaki urg'uning yaxshi tartibga solinganligiga asoslangan va so'z ajratishga muvofiq keladigan xususiyati. Bu tasnifni sintagmaning ritmik urg'u formasi, deb aniq aytish mumkin.

Nasriy nutqda metrga asoslangan yaxshi tartibga solinganlikning yo'qligi sababli, sintagmaning ritmik urg'u formasida muhim xilma—xillikni yaratilishi kuzatiladi. Shunga muvofiq sintagmaning ritmik urg'u formasi kompleksli xarakterga ega, deb tushuniladi va u o'zida quyidagi ritmik ko'rinishlarni mujassamlashtiradi.

a) qo'shimchaning bo'g'in cho'ziqligi;

b) urg'uli intervallar o'rtasida bo'g'in cho'ziqligi;

v) so'z ajratuvchilarning tiplari va joylashuvi;

g) fonetik so'zlarning bo'g'in cho'ziqligi va ularning sintagmada joylashuvi.

Sintagmada oxirgi so'zdagi asosiy urg'u bilan birga boshida kuchli urg'u ham paydo bo'ladi.

Eng avvalo, fransuz tilidagi urg'uning demarkativ funksiyasi ajratiladi, lekin bu yerda frazada so'zlarning emas, balki ritmik guruhning chegaraliligi nazarda tutiladi.

Bu yo'nalishda fransuz tili fonetikasining terminologiyasi yetarli darajada xilma—xildir. Fraza urg'usining yordami bilan almashinadigan so'zlar guruhi alohida o'z nomiga ega.

M.Grammonning fikricha, "Ritmik guruh" (ritmik urg'u)—keng qo'llaniladigan termindir.

L.V.SHerba ham xuddi shunday fikr bildirgan, ya'ni bu termin tilshunoslikda tez—tez uchraydigan va ritmni hosil qiluvchi va fransuz tilidagi urg'uning funksiyalaridan birini ajratib ko'rsatuvchidir.

Terminologiya muhokamasi Tarnoning ilmiy ishlarida ham sabab qilib ko'rsatilgan, ya'ni frazaning urg'u yordamida almashinuvi urg'uning gradasiyasi, deb inobatga olingan. Eng qulay termin, deb "aksent birliklari" termini qabul qilingan, u ritmik guruh kabi kamdan—kam bir so'zni qamrab olmaydi va guruh ham hisoblanmaydi.

Shular bilan bir qatorda boshqa terminlar ham bor. Masalan, P. Passi tomonidan fanga kiritilgan "kuchli guruh" termini ham bor, ya'ni uning negizida urg'uning fizik tavsiflanishida urg'u bilan ajratilgan unlining intensivligini oshishi yotadi.

Urg'uning fizik tavsiflanishi to'g'risidagi muammo hozirgi kungacha muhokama qilinmoqda. Shu yo'l orqali so'z ba'zi hollarda o'zining ajratilganligini saqlab qoladi.

Ritmik davriylik faqatgina urg'uli bo'g'inlarning muntazamligida namoyon bo'lib qolmaydi. Ritm aniq bo'lishi uchun nutq faoliyatidagi urg'ularda ierarxiya bo'lishi kerak. Ritmik davriylik qonunlariga bo'ysunadi, lekin ular har bir til uchun

har xildir. Rus tilidan farq qilgan holda fransuz tili ritmning kuchayishi bilan xarakterlanadi, ya'ni fransuzcha gaplarda urg'usiz bo'g'inlar urg'uli bo'g'inlardan oldin keladi.

O'zgarmaydigan ritmik strukturalarni to'g'ri ishlatilishi, K. K. Barishnikovaning nazariyasiga ko'ra, fransuz tilining takomillashuvi moboynda rivojlangan- statik ritmdir.

Statik ritmning aniqlanishi ma'no va aytilayotgan fikrning stiliga bog'liq. Masalan, tantanali yoki rasmiy nutqda qisqa ritmik strukturalarning to'g'ri takrorlanishi, og'zaki nutqda ko'p o'zgaradi.

Bunday nutqda tez-tez uzun ritmik strukturalar, ya'ni 6-9 ta yoki undan ham ko'proq bo'g'inlardan tashkil topgan strukturalardan foydalaniladi.

Tilning har xil stil va tiplarida ritmik strukturalar tashkil qilishning o'zgaruvchanligi dinamik ritmni hosil qiladi.

Dinamik ritm yana intensivlik ritmi, deb ham yuritiladi, u kuchli va kuchsiz bo'g'inlarning takrorlanishidan hosil qiladi. Cho'ziqlik ritmi, miqdor ritmi hisoblanadi, u uzun va qisqa bo'g'inlarning ritm tembriga parallel holda takrorlanishidir. Ritmik birliklarining takrorlanish tezligiga keladigan bo'lsak, fransuz tili nutqi tezligining balandligi bilan xarakterlanadi. Ritm hatto ilmiy nasrda ham kuzatiladi. Balandlik ritmi dinamik ritm bilan bog'liqdir, u dinamik ritmga parallel holda aleksandr tetrametlarida nomoyon bo'ladi.

Masalan:

“ Quand l'aigle a dépassé les neiges éternelles

A sa vaste envergure il veut chercher plus d'air “ .

(J. M. Heredia)

Ritmning yana bir o'ziga xos funksiyalardan bir- bu tekst tuzish funksiyasidir. Tekstning dialektik tabiati ritmik strukturaga mos keladigan belgini beradi.

Fransuz tili ritmi yana bo'g'inlarning tengligi bilan ham xarakterlanadi. Aksent birliklarining tabiatiga bog'liq ravishda urg'uli bo'g'inlarning cho'ziqligi tenglik tendensiyasi bo'lgan urg'usiz bo'g'inlarga o'tadi.

Frazada bo'lsa, oxirgi urg'uli bo'g'inlarning cho'ziqligi, u yerni to'ldirib turgan boshqa urg'uli bo'g'inlarnikidan ikki marta kattaroq bo'ladi.

Fransuz tilida olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishi-cha, frazaning oxirgi urg'uli bo'g'ini ritmni amalga oshirishning asosiy elementi hisoblanadi.

Ritmik faoliyatsizlik o'z yechimining aniqlanishini oddiy urg'uli birliklarning muntazamligida emas, balki bir-biriga ko'proq bog'liq bo'lgan, ya'ni frazadagi birliklarning oxirgi bo'g'inida topadi.

Nutq jarayonida ritmni shakllantirish, asosan, aksentuatsiya bilan bog'liq. Demak, xulosa qilib aytishimiz mumkin-ki, ritm uchta asosiy funksiyalarni bajaradi:

- 1) demarkativ;
- 2) qarama – qarshilik;
- 3) shakllantiruvchi

Demarkativ yoki delimitativ funksiyani ifoda etib, tinglovchiga yanada tushunarliroq bo'lishi uchun ritm fikrni taqsimlovchi birlik sifatida xizmat qiladi. M.Deshevitsin o'zining monologik matn bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida ritmning eng muhim nasriy segment birlik sifatidagi rolini yoritib beradi. Olingan natijalar bo'yicha muallif quyidagi xulosaga keladi: Fransuz tilidagi ritmning demarkativ funksiyasi faqatgina urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inlarning muntazamligi bilan amalga oshirilmaydi, balki izoxronlik tendensiyasi mavjud bo'lgan urg'uli

birliklarning almashinuvi bilan ham amalga oshiriladi. Demarkativ funksiyasidan mustasno tarzda ritm nutq segmentlari, xususan, yaqollik darajasi (degré de proéminence) har xil bo'lgan bo'g'inlar o'rtasida kontrast, ya'ni qarshilik keltirib chiqaradi. Bu ritmning qarama-qarshilik funksiyasi hisoblanadi.

Shakllantirish yoki tashkiliylik funksiyasida ritm ma'no jihatidan eng muhim segmentlarini ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Nihoyat, shuni ham ta'kidlab o'tish kerak-ki, ritmik harakatlarga yordam beradigan narsa faqatgina urg'u emas, balki barcha fonetik his-tuyg'uli tasvirlanadigan yoki ifodalanadigan-jarangdor tembr, unlilar sovuqi, aniq intensivlik va melodiya.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu bo'limda gap nutq ritmining funksiyalari va tabiati to'g'risida bordi. Ritmning tildagi roli haqida har xil fikrlar keltirilgan. Har qanday tilda ham ritm mavjud. Ritmsiz bizning fikrlarimiz tushunarsiz bo'ladi.

Ritm-eng muhim aloqa vositasidir. Ritmning kompleksi xarakteri urg'uning taqsimlanish analizi zarurligiga olib keladi, pauza va melodik modifikatsiyalari, barcha elementlar bir-birlari bilan zich bog'liq va har xil situatsiyali sharoitda ular nutq ritmini hosil qiladilar.

II BOB. HOZIRGI ZAMON FRANSUZ TILIDA RITM FRAZA INTONATSIYASINING KOMPONENTI SIFATIDA

2.1. Aksent birliklari va ularning tabiati

Boshqa inson faoliyatlari kabi nutq ritm tendensiyalari orqali boshqariladi. Frazalar ritmi aksent birliklaridagi ajratilgan va ajratilmagan bo'g'inlarning ketma-ketligi orqali ifodalanadi. Aksent birliklaridagi ajratilgan bo'g'inlarning tendensiyalari tadqiq qilingan nutq birliklarining ritmini kvantativ xarakterga ega deyish imkonini berdi. Bu o'z navbatida fransuz tili ritmini dinamik xarakterga ega deb keltirilgan fikrlarga qarama-qarshi turadi.

Aksent birliklari deganda, eng avvalo, ko'z oldimizga ritmik guruh keladi. Ritmik guruh – bitta ma'no birligini anglatuvchi va oxirgi bo'g'iniga urg'u tushuvchi so'zlar guruhidir. Ba'zan uni fonetik so'z deb ham atashadi. Bu termini birinchi bo'lib qo'llagan fransuz fonetisti M.Grammon unga quyidagicha ta'rif beradi:

« Toute suite des mots qui expriment une idée simple et unique un seul groupe rythmique et n'a d'accent que sur sa dernière syllabe ».

Urg'u til birliklarini ritmik guruhda birlashtirishga xizmat qiladi. Fransuzcha frazada so'z urg'usi o'z o'rnini ritmik guruhning oxiriga tushuvchi ritmik urg'uga beradi.

Bitta frazaning o'zini fransuz va rus tillarida qiyoslaganda ular ma'no jihatidan bir xil parchalansa ham, ularning ritmik ko'rinishlari har xil bo'ladi, rus tilida frazada so'z har doim o'z urg'usini saqlab qoladi, fransuz tilida esa, so'zlar o'z urg'usini yo'qotadi, ular ma'lum guruhlarga birlashib aksent birliklarni tashkil qiladi. Bunday guruhlar ritmik guruhlar deyiladi va eng oxirgi bo'g'indagi bittagina urg'u bilan xarakterlanadi. Ushbu urg'u ritmik urg'u yoki fraza urg'usi deyiladi.

Masalan : Tout fut grandiose / dans ce prologue / de la Commune.

Всё было грандиозно / в этом предлоге / к Коммуне.

Har ikkala fraza ham uchta ma'no birligiga ega. Lekin fransuzcha frazada uchta urg'u bo'lsa , ruscha frazada oltita urg'u bor.

Frazalarni ritmik guruhlarga ajratishda ulardagi so'zlarni mustaqil hamda yordamchi so'zlar toifasiga ajratish kerak.

1. Barcha yordamchi so'zlar o'zlari birikkan mustaqil so'zlar bilan birga bitta ritmik guruh yoki ma'no birligini hosil qiladi.

Yordamchi so'z + mustaqil so'z yoki mustaqil so'z + yordamchi so'z

Masalan: un professeur

un étudiant

des enfants

mes amis

ce programme

Barcha artikllar, predloglar, yordamchi fe'llar, ayrim sifatlar va olmoshlar yordamchi so'zlar hisoblanadi.

Ritmik guruhdagi mustaqil so'zlarga fransuz tilidagi barcha mustaqil so'z turkumlari va olmoshlarning urg'uli shakllari (moi, toi, lui, celui, lequel, laquelle, quelqu'un) ham kiradi.

Masalan : *Nos amis sont rentrés /chez eux .*

Cette fleur / est belle.

Agar mustaqil soʻz vazifasida infinitif shakldagi feʼl kelsa, kishilik olmoshlari va qoʻshma zamonlar yoki passiv formani hosil qilishda ishlatiladigan **avoir** va **être** yordamchi feʼllari u bilan birga bitta ritmik guruhni hosil qiladi.

Masalan : Ils ont écrit [ilzōtekri]

Il est permis [ilɛ pɛ:r'mi]

Elles sont arrivées [ɛl sō·tari 've]

Agar avoir va être feʼllari gapda oʻzining toʻliq maʼnosiga ega boʻlsa (yaʼni bor boʻlmoq, ega boʻlmoq kabi) ular mustaqil soʻzlar singari fonetik nuqtai nazardan mustaqil feʼllar (yoki soʻzlar) kabi oʻz urgʻusi va ritmik salohiyatiga ega boʻlaveradi.

Masalan : Les enʼfants /ʹ sont / dans le jarʼdin.

Infinitiv bilan birga tasviriy zamonlarni hosil qiluvchi yarim yordamchi feʼllar (aller va venir) ; faire feʼli va murakkab kesim tarkibiga kiruvchi modal va yarim modal feʼllar(devoir, pouvoir, valoir, falloir, paraître, sembler) feʼllari ham bitta ritmik guruhni hosil qiladi.

Masalan : *Ils vont partir - Ular hozir joʻnab ketishadi.*

Elle vient de sortir - U hozirgina chiqdi.

Koʻpchilik hollarda oʻzlarining mustaqillik xususiyatini yoʻqotib aniq sintaktik va mustaqil maʼnoga ega boʻlgan bogʻlovchilar bitta ritmik guruhni tashkil qiladi.

2.Aniqlanmish soʻzdan oldin turgan aniqlovchi soʻz u bilan birga bitta ritmik guruhni hosil qiladi.

Aniqlovchi + aniqlanmish

Masalan : *Une grande maison*

Un bel arbre

Une vieille musicienne

Bunday hollarda aniqlovchi so'z deganda har xil ko'rinishdagi sifat va ravishlar nazarda tutiladi. Aniqlanmish so'z esa ot, sifat, fe'l, ravish bilan ifodalangan so'zlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu tamoilga muvofiq ravishda mavjud ritmik guruhning tiplari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin :

1- tip

Sifat+ot

Masalan : *Sa nouvelle voi'ture*

La petite Martine

Les deux frères

3-tip

Ravish+ fe'l

Masalan : *Nous avons joliment travaillé.*

Il a mal appris et mal écrit.

2-tip

ravish+ sifat

Ravish+ sifatdosh

trop aimable

plus appétissant

également français

4-tip

ravish + ravish

très attentive'ment

si puissamment

extrêmement 'haut

Bunday holda ritmik guruhda ikkita mustaqil so'z birga kelsa ham, ular o'rtasidagi sintaktik va semantik munosabatlar bitta umumiy urg'uli ritmik birlikni ma'qullaydi. Bunday munosabatlar, asosan, aniqlovchi vazifasida keladigan va predmetning asosiy belga xususiyatlarini ifodalovchi(*grand, joli, nouveau, vieux, bel, petit*) sifatlariga xosdir.

3. Aniqlanmishdan keyin kelgan ko'p bo'ginli aniqlovchi so'zlar alohida ritmik guruhni hosil qiladi. Bunday hollarda aniqlovchi va aniqlanmish nutqda yagona aksent birlikni hosil qiladi.

Aniqlovchi ← → **ko'p bo'ginli aniqlovchi**

Bu qoidada aniqlovchi so'zlar deganda barcha aniqlovchi va hollar nazarda tutiladi.

	sifat		ravish
ot ↔	sifatdosh , fe'l	↔	ravishdosh
	predlog + ot		ibora

Masalan: *Un 'livre intéréssant* *On vous é'coute attentive'ment.*

La le'çon de fran'çais *Il l'a compris à la 'lettre.*

Bunday holatda aniqlanmish so'zning ritmik mustaqilligi uning sintaktik jihatga ega bo'lgan salohiyati bilan tushuntiriladi.

4. Bitta ma'no birligini anglatuvchi turg'un so'z birikmalari bitta ritmik guruhni hosil qiladi. Ayrim hollarda M.Grammonning ko'rsatmalariga qisman aniqlik kiritish ham mumkin, ya'ni agar so'z guruhini aynan shu tildagi yoki boshqa bir tildagi bitta so'z bilan almashtirish mumkin bo'lsa, u holda bu so'zlar bitta ritmik guruhni hosil qiladi.

Masalan : *une jeune fille* - qiz

Tout à coup - to'satdan

Arc-en -ciel - kamalak

Bien sur - albatta

Bunday soʻz birikmasining maʼnosi fransuz tilidagi bitta sinonim soʻz yoki boshqa tilga tarjima qilinganda uning bir soʻzga toʻgʻri kelishi orqali tushuntiriladi.

Masalan : *un maître d'école* - oʻqituvchi

Avoir honte - uyalmoq

Avoir soif - chanqamoq

5. Har qanday mustaqil soʻz oʻzidan keyingi bir boʻgʻinli mustaqil soʻz bilan birga bitta ritmik guruhni hosil qiladi. Bunday hollarda soʻzlarning bir guruhga birlashishi fransuz tilining ritmik xususiyatlari bilan belgilanadi, yaʼni fransuz tili nutq oqimida ikkita urgʻuli boʻgʻin bevosita ketma-ket holda kelishi mumkin emas. Shuning uchun ham ritmik guruh oxiridagi bir boʻgʻinli aniqlovchi ritmik urgʻu olishi munosabati bilan, undan oldingi aniqlanmish soʻz oʻz urgʻusini yoʻqotadi. Bu yerda dezaksentuatsiya hodisasi roʻy beradi.

Masalan : *un stylo noir* *habiter seul*

mon ami Pierre *aller vite*

Ritmik guruh odatda yuqori metodga ega, shunday ekan quyidagi ketma-ket kelgan ritmik guruhning melodik koʻrinishlarining sxemasi toʻlqinsimon egri boʻladi, chunki har bir ovozning pasayishi yoki tushishi ritmik guruhning boshlanishidan darak beradi.

Aksent guruhning ritmik shakllanishi shunisi bilan ajralib turadi-ki, undan qisqa unlili boʻgʻinlar iloji boricha urgʻudan uzoqroqda joylashadi ; eng choʻziq tovush , bu urgʻuli boʻgʻindagi unli tovushdir. Bu qonuniyatni nechogʻli toʻgʻri ekanligini tekshirishdan oldin har xil sifatga ega boʻlgan unlilar orasidagi ingerent choʻziqlikning xilma-xilligini eʼtiborga olish lozim boʻladi, albatta. Ton va choʻziqlik urgʻuning asosiy komponentlari ekan, aynan shu urgʻuning yuzaga kelishi jarayonida ritmik guruhning shakllanishidagi uning oʻrnini ham koʻrib chiqish kerak.

Undan tashqari, ritmik guruhning shakllanish jarayoni urg'uga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa fonetik xususiyatlarning ishtirokiga ham bog'liq. Bular qatoriga nutq jarayonining bevosita uzviyligini ta'minlovchi va ayni bir vaqtda uni fonetik birliklarga parchalovchi prosodik vositalardan *liaison* va *enchaînement* hodisalarini kiritish mumkin.

Liaison – bunda ba'zi so'zlar, ayniqsa, ba'zi morfologik kategoriyalar ikki xil talaffuz shaklida yuzaga keladi- birinchisi, oxirgi undoshga qo'shib talaffuz qilinadi, ikkinchisi esa undoshdan mutloq tarzda talaffuz qilinadi.

Enchaînement – bu o'qiladigan undosh tovush bilan tugagan so'zni keyingi unli tovush bilan boshlangan so'zga bog'lab talaffuz qilinish hodisasidir. Ushbu oxirgi undosh keyingi unli bilan boshlangan so'z tarkibida talaffuz qilinadi.

Masalan : *Elle est sérieuse.*

Il écoute la musique.

Elle apporte des livres.

Ko'pchilik fransuz fonetistlarning ilmiy ishlarida biz shuni kuzatishimiz mumkinki, frazaga kirgan va ritmik guruhga birlashgan so'z, agar u oxirida bo'lmasa o'z urg'usini yo'qotib, oxirgi bo'g'inda turuvchi ritmik bo'g'inga ega bo'ladi. Bu ma'noda P.Delatr fransuz tilida ritmik guruhning boshida turgan mustaqil so'zlar o'z urg'usini butunlay yo'qotmaydi deb hisoblaydi.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fransuz tilida asosiy urg'u so'zlar guruhiga tushsa ham, so'zlar o'z urg'usini butunlay emas, qisman yo'qotadi. Bu hodisa dezaksentuatsiya hodisasi deb ataladi. Dezaksentuatsiya hodisasiga ritmik guruhning boshidagi so'zlar uchraydi.

Fonetik nuqtai nazardan sintagmalar o'zlarining oxirgi bo'g'inlarida yakkayu yagona sintagma urg'usiga ega bo'ladi. Bu urg'u unga kiruvchi so'z va so'z

guruhlarini birlashtirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham uning urg'usi uning ichidagi ritmik guruhlar urg'usidan birmuncha kuchliroq talaffuzga ega bo'ladi.

So'zlarning bir sintagmaga birlashishi ularning leksik-grammatik va semantik o'zaro bog'liqligidan va bu munosabat oqibatida bir butun fonetik birlikning (sintagmaning) shakllanishiga olib kelishidan darak beradi. (12 ; 167)

1). Ega (agar u bitta so'z bilan ifodalangan bo'lsa) va kesim :

Masalan: Ce garçon est parresseux.

[sə-gar-'sõ-ε-pa-rε-sø]

2) Undalmalar,ajratishlar hamda gap va uning bo'laklari bilan aloqaga kirishgan so'z va iboralar.

Masalan: Le concert m'a –t-on dit, était très ennuyeux.

[lə-kõ-sɛ:r/ma-tõ-"di/ ε-tε-trε-zã-nyi"jø ||]

Je dois te gronder, mon enfant.

[ʒə-dwa-tə-grõ-'de | mõ-nã-'fã ||]

3) Qo'shma gapning bosh gap qismi,gapning boshida turgan hol va aniqlovchilar guruhi,sifatdoshli iboralar;

Masalan: Ayant fait ce devoir ,Madelène est allé se reposer.

[ε-jã-'fε-sə-də-"vwa:r mad-'lε-nε-ta-'le-'sə-rə-po-"ze ||]

Comme il est en retard, Michel s'est rougi.

[kɔ-mi-lε-tã-rə-'ta:r/ mi-'ʃɛl-sε-ru-'ʒi ||]

4) Qo'shma gapning ergash gap qismi:

Sur la branche d'un chêne, une mésange , qui donne à ses petits, attire son attention.

[syr-la-brã]-dœ-ʃɛ:n/ yn-me-zã:ʒ /ki-do-nə-mã-ʒe-a-se-pti/a-tir-sõ-na-tã –'sjõ ||]

5) Gapning uyushiq bo'laklari alohida sintagmani hosil qiladi.

Masalan: Paris, Londres, Moscou sont les plus jolies villes du monde.

^[pa-ri/ lõ:dr/ mɔs-ku/ sõ-le-ply-ʒɔ-li-'vil-dy-'mõ:d ||]

-Quelle est la plus jolie ville du monde? -Paris.

[kɛ-lɛ' -la-ply-30-li- 'vil-dy-mɔ:d || pa-ri ||]

Sintagmaning xususiyatlari sifatida shuni ta'kidlash kerak-ki, uning u yoki bu yo'sinda ajralishi biron bir qoidaga binoan amalga oshirilmaydi, u eng avvalo, so'zlovchining psixologik fikrlash xususiyatiga, fikrning nechog'li murakkab yoki oddiyligiga, nutq tempining tezlik darajasiga va nihoyat uning nutq stiliga bog'liq bo'ladi. Masalan, nutq tempi qanchalik tez bo'lsa, undagi urg'ular shunchaki kuchsizlanadi, ega va kesim orasidagi pauzalar yo'qoladi, ritmik guruhlar o'z maqomini yo'qotib, o'zlaridan kattaroq bo'lgan boshqa fonetik birlik (sintagma)lar tarkibiga qo'shib ketadi. Mayda sintagmalarning urg'ulari va ular orasidagi nafas pauzalari ham birmuncha susaygan bo'lishi mumkin.

Yozma nutqda sintagmaga ajratishning qator vositalari mavjud bo'lib, ular so'zlovchining aytmoqchi bo'lgan fikrini aniqroq tushinib olishga xizmat qiladi. Vergul qoida bo'yicha, sintagmaning chegarasiga to'g'ri keladi, vergulni yo'qligi esa nutqning intonatsion butunligini saqlashga xizmat qiladi. Bosh gapdan vergul bilan ajratilmagan qo'shma gap, odatda, alohida sintagmani tashkil qiladi.

Masalan: Elle veut que vous restiez ici.

[ɛl- 'vø/-ke -vu-rɛs-ti-je i-si ||]

Sintagmalarga bo'lishni fransuz tilidagi puntuatsiya qoidalari doirasida amalga oshmasligi ham mumkin, ya'ni oxiri hech qanday tinish belgisiga muhtoj bo'lmaydi: ko'pchilik hollarda ot bilan ifodalangan, lekin tinish belgi bilan ajratilmagan ega o'qish jarayonida alohida sintagmani hosil qiladi.

Masalan: Lili/tenait à la maison main une grosse cigale....,

Cependant, /Paul / grattait sur une pierre une allumette souffrée.

(M.Pagnol)

Gapning uyushiq bo'laklarini ajratib turuvchi « et » bog'lovchisi oldidan vergul qo'yilmasa ham, sintagmatik chegara, ko'pchilik hollarda uning oldidan belgilanadi.

Masalan: Et puis, / la moi à qui tombe / et un tas de choses qui me plaisaient...

(J. Prévert)

Demak, yuqorida keltirilgan misollardan kelib chiqib, hulosa qiladigan bo'lsak, nutqdagi xohlagan bir segment u yoki bu jihatdan ritmni shakillantirishda muhim rol o'ynaydi. Lekin, bularning ichida murakkab fonetik, grammatik va semantik hodisalarni mujassamlashtiradi. Ritmik guruhning fonetik tugallanishi melodiyaning yengil o'zgarishi, ritmik urg'u va urg'uli bo'gindagi cho'ziqlik orqali yuzaga keladi.

Hozirgi kunga qadar, sintagmani o'rganish sintaksisda, binobarin, sintaktik fonetikada o'zining yuksak darajasiga yetganicha yo'q. Shu bilan birga sintagma fonetika uchun ham, sintaksis uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. B.B. Vinogradovning aytganidek, sintagma-aniq bir hodisa va u nutqning harakat birligi hisoblanadi.

2.2. Ritmni hosil qiluvchi fonetik hodisalar

Hozirgi zamon fransuz tilida ritmni o'rganish masalasi haligacha eng murakkab akustik strukturaga ega. Bo'g'inning doimiy belgilaridan biri bu- uning cho'ziqligidir. Agar bo'g'in minimal ritmik birlik hisoblanar ekan, demak, unda asosiy ritmik vositalar, ya'ni ritmik guruhlarning tuzilish qonuniyatlari aks ettiriladi. Ritmik guruh fonetik jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lgan bo'g'inlar tizimini o'zida mujassamlashtiradi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, tildagi ba'zi ko'nikmalar insonda tug'ilishiga qadar hosil bo'ladi, ular orasida eng asosiy nutq ritmi hisoblanadi.

Demak, biror tilning ritmik strukturasi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, eng avvalo ritmik vositalar to'g'risida to'xtalib o'tishimizga to'g'ti keladi. Fransuz ajratishda ham asosiy rol o'ynaydi.

Fransuz tilida urg'u va melodiyaning o'zaro uzviy aloqasi tadqiqotchilar oldiga urg'uning frazadagi distributsiyasi, uning funksiyasi va akustik tabiatiga asosiy diqqat e'tiborni qaratish vazifasini qo'ymoqda. Ma'lumki, bitta kontekstda ritmik guruhning hajmi nutq uslublariga monand ravishda uzun yoki qisqa bo'lishi mumkin :(o'qish,og'zaki nutq,leksiya va hokazolarda).

Boshqa tillardan farqli o'laroq fransuz tilida urg'u fonologik distinktiv funksiyaga ega emas,u faqat muayyan tovush birliklari,ya'ni ritmik guruh uchun xizmat qiluvchi bir shartli belgi vazifasini bajaradi.

Keyinroq birinchi bo'g'inlarda *accent d'insistance* ya'ni qo'shimcha urg'uning mavjudligini aniqlanishi bilan fonetistlar fransuz tilida ritmik urg'uning joyi bilan bog'liq qator xato fikrlardan xalos bo'lishdi. Shu bilan birga uning fonetik tabiati to'g'risidagi masala haligacha muammoligicha qolib kelmoqda.

Ayrim olimlar fransuz tilida urg'u boshqa tillardagiga o'xshab aralash xarakterga ega deb hisoblashadi.

M.Grammonning fikricha ,urg'uli bo'g'in uchta vosita bilan ajratiladi: to'nning balandligi, intensivligi va unlining cho'ziqligi.

Akademik L.V.Sherbaning ta'kidlashicha , fransuz tilida urg'uli bo'g'in uchta emas balki to'rtta vosita orqali ifodalanadi: tovush balandligi, intensivlik , unlining cho'ziqligi va yana bo'g'indagi tovushlar sifatining o'zgarishi.

L.V.Sherbaning ko'rsatishicha , bu vositalar o'zaro chambarchas bog'langan, ular o'zaro bir-birlarini to'ldirib keladi , ba'zan esa, o'zaro almashib kelishi ham mumkin.

P.Fushe va L.Armstrongning ta'kidlashicha , urg'uli bo'g'in ikkita vosita orqali ajratiladi: to'nning oshishi va intensivlikning kuchayishi. G.Suza va Sh.Bryunolarning fikrlaricha , fransuz tilida ritmik urg'u ikki xususiyati bilan ifodalanadi: lekin u intensivlik va asosiy to'n bilan emas , balki intensivlik va cho'ziqlikdir. Demak bu yerda asosiy e'tibor mazkur vositalarning ahamiyatiga qaratilgan.

L.Rude va X.Stenning nuqtai nazaricha , urg'uli bo'g'in ikkita –uchta emas, faqat bitta omil bilan ajratiladi,u ham bo'lsa bo'g'inning intensivlik darajasidir. Fransuz olimi P.Delatning fikricha ,fransuz tilida urg'u eng avvalo, unli tovush cho'ziqligining ortishi orqali hosil qilinadi. Ritmik urg'u bo'yicha birinchi bo'lib tadqiqot olib borgan S.E.Parmenter va A.V.Blankning fikrlaricha , fransuz tili urg'usining o'ziga xosliklaridan biri bu-to'nning o'zgarishidir. Ularning ta'kidlashlaricha ,fransuz tilida intensivlik ingliz tilidan farqli o'laroq, urg'uning bosh parametri hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda , aytish mumkin-ki, fransuz tilida fraza (ritmik) urg'usi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan . Lekin ulardagi fransuz tili urg'usining tabiati to'g'risidagi xulosalar birmuncha ziddiyatlidir.

Olimlarning fikricha, urg'u goh bir, goh ikki va goh uch-to'rt vosita bilan ifodalanadi. Bundan tashqari urg'uning bosh komponenti to'g'risida turli fikrlar mavjud. Ba'zi olimlarning ta'kidlashlaricha ,fransuz tili urg'usida intensivlik, boshqalarning fikricha ,miqdor (cho'ziqlik) va boshqalarda esa to'nning o'zgarishlari bosh vazifani bajaradi.

Hozirgi zamon fransuz tili fonetikasining muammolaridan yana biri so'z va fraza urg'ulari munosabati va umuman urg'uning o'rni haqidagi masaladir.

Ko'pchilik olimlarning fikrlaricha fransuz tilida urg'u so'zga emas, ritmik guruhga tushadi. Bu borada M.Grammoning fikri yaqqol dalil bo'lishi mumkin:

“L’accent n’appartient donc pas au mot,mais au groupe ,et mot donné le porte ou ne le porte pas selon la place qu’il occupe dans le groupe et le rôle qu’il y joue”.

Uning ta'kidlashicha ,”Un lieutenant “ so'zining urg'usi “-nent” bo'iniga qo'yiladi. Lekin “un lieutenant colonel” so'zi “-nel”bo'g'iniga urg'u oladi,bu so'zdagi “-nant”bo'g'iniga urg'u tushmaydi. Ushbu ikki mustaqil so'z. Ushbu ikki mustaqil so'z bir iboraga birlashib , umumiy bir ma'no, ya'ni unvonni anlatadi. Shuning uchun bu so'z bir ritmik guruhni tashkil etadi.

Akademik L.B.Sherbaning ta'kidlashicha, fransuz tilida biz so'z urg'usi emas, balki fraza(ritmik)urg'usi haqida gapirmog'imiz kerak.Chunki so'zlar ritmik guruhlar tarkibiga kirgach,o'z urg'ularini yo'qotadi(guruhning oxirgi so'zi bundan mustasnodir),ya'ni bu holda dezaktsentuatsiya hodisasi ro'y beradi. Ritmik guruhning oxirgi bo'g'ini(ya'ni urg'uli bo'g'in) oldingi urg'usiz bo'g'inlarga qaraganda,birmuncha keskinroq va balandroq talaffuz etiladi.

Urg'uli unilarning cho'ziq o'qilishi, ayniqsa “r,z,v,j” va[vr] bilan tugagan oxirgi bo'g'in unililarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday holatni fransuz fonetislari “ritmik cho'ziqlik”deb atashadi. Masalan ,quyidagi so'zlar ana shu qoidaga misol bo'la olishi mumkin:

Sondage [sõn-‘da:ʒ]

Base [‘ba:z]

Positive [pɔ̃-zi-‘ti:v]

Bunday cho'ziqlik fransuz tili ritmi uchun spetsifik xarakter kasb etadi. Demak, urg'uli bo'g'in o'zidan oldingi urg'usiz bo'g'inlarga nisbatan birmuncha cho'ziqroq bo'ladi.

Ko'pchilik fransuz fonetistlarining ilmiy ishlarida biz shuni kuzatishimiz mumkin-ki, frazaga kirgan va ritmik guruhga birlashgan so'z (agarda u ritmik guruhning oxirida bo'lmasa) o'z urg'usini yo'qotib, ritmik urg'uga ega bo'ladi. Bu borada L.B.Sherbaning urg'u haqidagi fikrlari yaqqol dalil bo'ladi. L.B.Sherbadan farqli o'laroq fransuz olimi P.Delatrning ta'kinlashicha, oxirgi so'zdan oldingi mustaqil so'zlar o'z urg'usini butunlay yo'qtmaydi. Bu holda urg'uning qisman yo'qolishi kuzatiladi. So'z urg'usining to'liq yo'qolib ketmasligi so'z urg'usining saqlanib qolishidan darak beradi. Urg'uning qisman saqlanishi o'sha so'zning fonetik mustaqilligini yoki butunligini ta'minlovchi hodisadir. Ushbu urg'uning vazifasi aktsent guruhlaridagi so'zlarning chegarasini aniqlashga xizmat qiladi.

Xulosa tariqasida P.Delatr so'zlarning shunday fonetik butunlikni saqlab qoluvchi fonetik omillarini sanab o'tadi.

Bular quyidagilar:

- 1) ritmik guruh ichidagi mustaqil so'z urg'usining to'liq yo'qolib ketmasligi;
- 2) so'zlarning boshlang'ich bo'g'inlaridan birining urg'u olish hollari;
- 3) ayrim undoshlar artikulyatsiyasida sodir bo'ladigan fonetik hodisalar (liaison, enchaînement).

O'zining fransuz tilining urg'u strukturasi o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlardan olingan ilmiy-akustik natijalariga asoslanib P.Delatr to'lig'icha yo'qolmagan mazkur urg'uning fizik elementi bu dezaksentuasiyalashgan bo'g'in unlisining nisbiy cho'ziqligidir, deb hisoblaydi.

Uzun ritmik guruhlarda ikkinchi darajali urg'ular amal qiladi. Odatda, ritmik guruhning oxiridan boshlab, toq bo'g'inlarini ajratishga va shu bilan birga u mazkur guruhning o'ziga xos bo'lgan ritmik tarkibini shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchi darajali urg'uning joyi o'zgarishi ham mumkin. Ba'zan ikkinchi

darajali urg`u ,odatda ,ritmik urg`uga ega bo`lmaydigan so`zlar (murakkab zamondagi yordamchi fe`llarga) ham tushishi mumkin.

Masalan : Ils" sont fatigués. Elles" ont honte.

Qo`shimcha urg`u nutqning o`ziga xos ritmik strukturasi hosil qiladi .U frazaning ohirgi ritmik guruhlarida boshidagi va o`rtasidagi guruhlariga nisbatan ko`proq namoyon bo`ladi .Lekin ushbu ritmik struktura frazaning ohirgi ritmik guruhlarini uchun majburiy emas shuning uchun ham ayrim olimlar uning mavjudligini inkor etadilar

Hozirgi zamon fransuz fonetistlari orasida aksent guruhidagi yoki alohida ko`p bo`g`inli so`zlaridagi ikkinchi darajali urg`ularning o`rni ,ahamiyati, tabiati va funksiyasi to`g`risida azaliy ,umumiy bir fikr yo`q .Ulardan masalan, Passi, Ryud va boshqalarning aytishlaricha hamma urg`usiz bo`g`inlar ham bir xil darajada urg`usiz bo`lmaydi, ularning ba`zilari o`zining muayyan bir salohiyatiga , ya`ni ikkinchi darajali urg`usiga ega bo`ladi . Bu urg`ular so`z yoki ritmik guruhning oxiridan boshlab toq bo`g`inlarga tushadi. Ikkinchi darajali urg`u nazariyasi tarafdorlarining fikrlariga ko`ra, tilda doimiy amal qiluvchi ritmik tendensiyalar mavjud. Unga ko`ra, urg`uli bo`g`inlarning nisbatan ma`lum teng vaqt oralig`ida takror o`qilishi kuzatiladi.

Masalan, quyidagi so`zlar :

délégué ("" de -le -'ge)

travailleur ("tra -va -'joe :r)

café au lait ("a - fe - o - 'le)

prolonger ("prɔ - lõ - 'ze)

oxirgi bo`g`indagi asosiy urg`udan oldin qo`shimcha urg`u oladi. Ikkinchi darajali urg`u , demak, so`z yoki aksent birliklarining toq bo`g`inlarini ajratish bilan urg`uli va urg`usiz bo`g`inlar alternatsiyasi yuzaga keltiradi.

Amaliyotchilarning fikrlariga ko'ra, ikkinchi darajali urg'udan haddan tashqari ko'p va noto'g'ri foydalanish salbiy natijalar keltirib chiqarishi xususan esa, fransuz tili intonatsiyasi jiddiy xatolariga duch kelishi mumkin. Ikkinchi darajali urg'ular fransuz tilida haddan tashqari kuchsiz, kam sezilarli xodisadir. Shuning uchun ham ayrim fonetistlar (masalan P.Fushe)ushbu ritmik prinsipni rad qiladi.

Nutq oqimida urg'u intonatsiyasining bir elementi sifatida uning tarkibiga kiradi va u endi fraza urg'usi degan salohiyatga ega bo'ladi. Intonatsiyaning boshqa komponentlari bilan uzviy bog'langan va bo'g'inlar alternatsiyasi tendensiyasiga amal qilgan holda nutq ritmini hosil qiladi. Fraza urg'usi nutq ritmini hosil qiladi, boshqa-sintagmatik, logik va emfatik urg'ular esa, unda namoyon bo'ladi. Logik urg'u –so'zning bosh bo'g'inidagi unli talaffuzining kuchayishi va cho'ziqroq talaffuz qilinishidir. P.Fushe va M.Grammonlar (logik urg'u) va (emfatik urg'u)ni bir –biridan farq qilishini tan olishmagan. Logik urg'u ma'no jihatdan diqqat e'tibor qaratilgan so'zlarni ifodalaydi ; emfatik urg'u esa, uni his-hayajonga to'ldiradi. Birinchi holatda so'zlovchining maqsadi paydo bo'ladi. Ikkinchi holatda ko'ngildagi his-tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Masalan : *l'oiseau chante* , *le chien aboie* kabi frazalarda *l'oiseau* va *le chien* so'zlarida namoyon bo'ladi. Quyidagi gaplarda esa, so'zlovchining his-hayajonlari affektiv so'zlarning birinchi bo'g'inlarida emfatik urg'u orqali ifodalanadi. Undagi undoshning cho'zib o'qilishi orqali bu urg'u amal qiladi.

C'est formidable ! [sɛ "fɔ̃rmiˈdabl]

C'est chic ! [sɛ "ʃiːk]

Quelle joie ! ["kɛl ʒwa]

Intensivlik – nutq oqimida urg'uni hosil qiluvchi vositalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, intensivlik fransuz tilida boshqa tillarga nisbatan muhim ahamiyatga ega. Unli tovush intensivligining kuchayishi ritmik urg'uning shakllanishiga nisbiy ta'sir ko'rsatadi.

Demak, u unli tovushning talaffuz kuchini oshiradi. Intensivlik yoki dinamik ritm kuchli va kuchsiz bo'g'inlarning davriy takrorlanishidir. Masalan :

Quand l'aigle a dépassé les neiges éternelles

A sa vaste envergure il veut chercher plus d'aire.

(J.M.Hérédia)

Intensivlikdan keyin urg'uning tarkibiy elementlaridan biri bu ovoz balandligidir. Balandlik ritmi dinamik ritm bilan chambarchas bo'lib, ko'proq o'n ikki bo'g'inli she'rlarda uchraydi.

Masalan : J'aime le son du cor le soir au fond des bois .

Har bir tilning tabiatiga qarab uning ritmik asosi o'zgaradi.

Fransuz tilida cho'ziqlik haqida gap borganda, eng avvalo, tarixiy cho'ziqlik ko'z oldimizda namoyon bo'ladi, lekin u ritmik cho'ziqlik bilan bir xil bo'lmaydi. Ritmik cho'ziqlik bitta fonema yoki so'zda emas, balki ritmik guruhning oxirida yuz beradi. Shunday qilib bu cho'ziqlik fransuz tilidagi fraza urg'usining integral qismi hisoblanadi. Cho'ziqlik ritmi bu miqdor ritmi bo'lib , unda uzun va qisqa bo'g'inlar muntazam takrorlanadi.

Ritmni hosil qiluvchi asosiy komponentlaridan bo'lmish urg'u murakkab akustik hodisadir. Bir vaqtning o'zida urg'u, fraza intonatsiyasining komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Lekin u har bir tilning ichki xususiyatlariga, jumladan, uning aksent strukturasi tizimiga bog'liq ravishda so'z va fraza urg'ularining o'zaro munosabati har xil namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon fransuz tilida urg'uning asosiy muammolari quyidagilar hisoblanadi:

Uning akustik tabiati;

So'z urg'usi bilan fraza urg'usining o'zaro munosabati;

Frazaning nutq birliklariga ajralishida urg'uning o'рни, so'zning frazadagi identifikasiyasi.

Urg'u – til hodisasi sifatida, uning fonologik ahamiyati va tipologiyasi.

Bu muammolar fransuz tilida urg'uning bir qator holatlarini va eng birinchi navbatda unga ta'luqli bo'lgan terminologiyani qayta ko'rib chiqish kerakligini ta'kidlaydi.

Ko'pchilik tilshunoslar fransuz tilida urg'uning funksiyasini tuzatish jarayonlarida uning demarkativ va kontrastiv funksiyalari haqida so'z yuritishadi. Lekin fransuz tilida urg`uda distinktiv funksiyani ham bajaradi ,lekin u so`zda emas, balki fikrda bo`ladi . Fransuz tilidagi urg`uning bu funksiyasini Sh.For alohida ta`kidlaydi .

Masalan , Forning fikrlarini quyidagi misollarda kuzatishimiz mumkin :

C `est bien ce que vous dites .-C`est bien ce que vous dites.

M. Rossi o`zining ilmiy kuzatishlari jaroyonida omonim tipidagi frazalar seriyasini kuzatadi.

Masalan : J`en parle - Jean parle

Il nous dénatte(u bizni vayron qilmoqda) - Il noue des nattes(U kokillarni bog'lamoqda)

C`est la Madrague - Ces lamas draguent(Bu lamalar loyga botyapti)

P .Gard esa, o`z kuzatishlari natijasida ,fransuz tilida urg`uning ko`chuvchanligini ta`riflaydi . Bu holat o`z navbatida aksent birliklarining elastikligining (élasticité de l`unité accentuelle) ta`minlanishiga e`tibor qaratadi. Hozirgi kunga qadar, olib borilgan eksperiment kuzatishlar davomida ritmik guruhning bo`g`in tuzilishi, nutq tempi,melodiya va pauzalar o`rganiladi. Bu vositalar nutq ritmini shakillantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan birliklardir.

Bu bo'limda ritmni hosil qiluvchi fonetik vositalar to'g'risida fikr yuritiladi. Ularning funksiyasi, tabiati va turli nutq shakllaridagi faoliyatlari o'rganiladi.

Demak, yuqorida keltirilgan misollarda xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fransuz tilida so'z har doim ham frazada urg'usini to'liq yo'qotmaydi. Chunki ritmik guruhning oxiridagi so'zga ritmik urg'u tushgandan keyin, undan oldingi mustaqil so'zning urg'usi faqat bir oz kuchsizlanadi.

2.3. Urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning o'zaro alternatsiyasi, ritmik strukturaning asosi sifatida

Chet tilida gapirayotgan har bir shaxsning muomala madaniyati, eng avvalo, uning shu tilning leksikasi va grammatikasini qay darajada bo'lishiga bog'liq. Shunga qaramay, chet elliklarning fransuz tilidagi nutq idroki haqidagi bir talay kuzatishlarning ko'rsatishiga, bevosita muloqat paytida ma'lumotlarni tez va oson tushina bilish orqali belgilanadi.

Ritmni nutqiy prosodik tizim komponenti sifatida o'rganish uning tildagi funksiyalarini hisobga olgan holda olib boriladi. Mavjud tadqiqotlarning maqsadi, asosan, ritmik urg'ularning tabiati, distributsiyasi, gradatsiyasi, tipologiyasi va ularning fonologik funksiyalarining turli nutq shakllaridagi faoliyatini o'rganishdan iborat bo'ladi.

Ma'lum-ki, nutqni to'g'ri idrok qilishda, faqat unli va undosh tovushlarning ritmik guruhdagi birlashish usullari emas, balki urg'usiz bo'g'inga nisbatan urg'uli bo'g'inning aniqroq artikulyatsiya qilishi muhimroqdir; har bir bosh so'zning aniq va to'g'ri talaffuzi urg'uli unli tovushdan keyingi undoshning talaffuziga ko'ra birmuncha tez va ravonroq idrok qilinadi. Shunday qilib, muayyan tovushlar ketma-ketligidan tarkib topgan ritmik birliklarda tovushlarning o'zaro ta'siri bilan bog'liqdir.

Fransuz tilida ham bir ritmik guruh, odatda, urg'usiz bo'g'in bilan boshlanib,urg'uli bo'g'in bilan o'z yakuniga yetadi.

Masalan :*Les cinq compagnons/saváncent en órdre/sur une seule ligne.*

Ayni mana shu sabab fransuz tiliga ko'tariluvchi ritm xosdir. Undan tashqari , nutq oqimida ritmni idrok qilishda urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarining cho'ziqlik munosabati ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Fransuz tiliga xos ushbu ritm qisqa va tez talaffuz qilinadigan urg'usiz bo'g'inlarning bir tekisda ,sekin talaffuz qilinadigan urg'uli bo'g'inlar bilan almashinuvidan hosil bo'ladi.

Agar (ami d'Alfred, ami de Pierre) kabi so'zlar ketma-ketligini kuzatadigan bo'lsak, aksent guruhlarining hajmi ikkinchi darajali urg'uning yuzaga kelishi bilan bog'liq, ya'ni bu so'zlarda ikkinchi darajali urg'u ritmik guruhning oxiridan boshlab,toq bo'g'inlarga tushadi.

[a"midal'fred],

["amid'pjε :r]

Bu ikkinchi darajali urg'ular fransuz tilidagi frazada spesifik ritmni hosil qiladi.

Urg'u bo'yicha olib borilgan ekspremental fonetik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, fraza strukturasi o'zining fraza strukturasi o'zining fraza urg'usi va qo'shimcha logik tartibni shakllantirish bilan bog'liq turli akustik tabiatlari va ajratilganlik funksiyalari bilan xarakterlanadi .

Tilshunoslarning fikricha , nutq ritmi barcha ajratilgan va ajratilmagan bo'g'inlarning o'zaro alternatsiyasidan hosil bo'ladi . Fraza urg'usi bilan belgilangan bo'g'inlar va oldingi urg'uli qatorning temporal va dinamik strukturasi o'rtasida o'ziga xos oppozitsion munosabatlar yuzaga keladi . Bunday qarama-qarshilik eng oz darajada fraza yoki ritmik guruhning boshi va o'rtasidagi bo'g'inlarda shakllanadi.

Fraza urg`usini olgan bo`g`inlarning cho`ziqligi barcha bo`g`inlarning cho`ziqligidan ko`proq bo`ladi .Qarama –qarshilikning eng katta darajasi frazaning oxirgi bo`g`inidagi urg`usi bilan boshqa bo`g`inlar o`rtasida kuzatiladi: bu bo`g`inning cho`ziqligi boshqa bo`g`inlarning cho`ziqligidan ikki marta ko`proq bo`ladi .Ritmik urg`uning shakllanishida asosiy rolni o`zidan oldingi urg`uning temporal strukturasi muvofiq keladigan shu urg`uning ajratganlik kontrasti bajaradi .

Intensivlik, odatda, urg`u olgan urg`uning talaffuz kuchini oshiradi. Intensivlik kuchli va kuchsiz,yani urg`uli va urg`usiz bo`g`inlarning davriy takrorlanishidir. Doimiy va xarakterli ritm ritmik guruhlar ichidagi bo`g`inlar alternatsiyasining tezlik surati hisobiga bo`ladi, lekin fraza oxirida qisqa talaffuz qilinadigan urg`usiz bo`g`inning to`ni urg`uli cho`ziq bo`g`indagi ovoznining pasayishi bilan bir me`yorda bo`lishi mumkin. Bu vosita asosan,uzun ritmik guruhlarda kuzatiladi.

Agar fransuz tilining ritmik shakllanishiga, tafsilotlariga to`xtaladigan bo`lsak, bu to`g`risidagi masala M.Grammon, P.Rossi, L.V.Sherbalarning asarlarida o`zining yaqqol ifodasini topgan. Boshqa Hind-Yevropa oilasiga kiruvchi tillardan farq qilgan holda fransuz tilida so`z urg`usi yo`q, uning o`rnida ma`no va grammatik jihatdan uyushgan so`zlar guruhi urg`u oladi –bu ritmik guruhdir, uning urg`usi esa, ritmik yoki fraza urg`usidir. Urg`u , odatda, ritmik guruhning oxirgi bo`g`iniga tushadi, bunda urg`u taassuroti urg`uli unlining intensivligini kuchayishidagina emas, balki urg`uli unlining cho`ziqligini ikki barobar ko`payishidan yuzaga keladi.

Urg`uli va urg`usiz bo`g`inlarning ketma-ket almashinuvi gapning muayyan ritmini yuzaga keltiradi. Talabalar, odatda, o`z ona tillaridagi singari gapda hamma so`z urg`ularini saqlab qolishadi, bundan tashqari, gapni kuchli boshlab oxirida talaffuzni maksimal susaytirishlari natijasida ko`plab interferensiya xatolariga qo`yishadi.

Zamonaviy maxsus eksperimental-fonetik tadqiqotlar soʻz va frazalarning tovush strukturalarini akustik apparatlar yordamida tahlil qilish bilan frazalarning aksant-melodik tizim masalalarini butunlay yangicha tahlil qiladi.

Turli tillar boʻyicha olib borilgan eksperimental-fonetik izlanishlar natijalaridan olingan maʼlumotlarga qaraganda, urgʻu intonasiyaning faktorlari sifatida turli tillarda akustik vositalarning turlicha tarkibi va ularning turlicha oʻzgaruvlari bilan ifodalanadi.

G.V.Artoboleevskiyning fikricha, nasriy ritm urgʻuli va urgʻusiz boʻgʻinlarning alternatsiyasi va katta-kichik pauzalarning oʻzaro almashinuvi asosida namoyon boʻladi. Xuddi mana shu uchta komponent, yani urgʻuli boʻgʻin va pauzaning oʻzaro munosabati til ritmini vujudga keltiradi. Agar ritmni hosil qilishda urgʻuli boʻgʻinning roʻli umumlingvistik xarakterga ega ekan, u holda urgʻuli va urgʻusiz boʻgʻinlarning oʻzaro almashinuv xarakteri, ritmning tipi, alternatsiyaning vujudga kelishi kabilar har bir tilga spetsifik xarakter beradi.

Fransuz tilida urgʻuli boʻgʻin urgʻusiz boʻgʻindan asosan, choʻziqlik orqali farqlanadi: urgʻuli boʻgʻin urgʻusizga qaraganda ikki marta choʻziqroq boʻladi.

Fransuz tilidagi ritmik urgʻuning oʻrni uning akustik strukturasi va frazadagi oʻrni haqidagi baxs-munozaralar hozirgi kunga qadar davom etmoqda.

A.Jillning oxirgi boʻgʻindagi urgʻuning birinchi boʻgʻinga koʻchishi toʻgʻrisidagi fikrlari ham shu baxs-munozaralarga taalluqlidir. Uning taʼkidlashicha, soʻzdagi birdan ortiq boʻgʻinga ega boʻlgan urgʻu, agar ochiq boʻgʻin boʻlsa, u holda oxirgi boʻgʻindan birinchi boʻgʻinga koʻchadi va u oʻzining kuzatishlarini melodiyaning oʻzgarishi bilan bogʻliq deb hisoblaydi.

Shuni ham taʼkidlab oʻtish kerak-ki, ajratilgan urgʻu, eng avvalo, oʻzining turli shakllanish holatlariga qarab bir qator koʻchishlariga ega soʻz undosh harf bilan boshlanganda ajratilgan urgʻuning shakllanishi yetarli darajada bir maʼnoli

hisoblanadi . So`z unli harf bilan boshlanganda ajratilgan urg`uning shakllanishi uch xil ko`rinishda bo`ladi:

- 1) so`z boshidagi unlining undoshlashuvi ;
- 2) birinchi undosh harfdagi urg`uning ikkinchi bo`g`inga ko`chishi ;
- 3) liaison hodisasi yuz beradigan undosh tovushga urg`uning tushishi ;

Lekin ajratuvchi urg`u faqat so`zning bosh bo`g`inlariga emas, balki o`rta yoki oxirgi bo`g`inlariga ham tushishi mumkin.

So`zning oxirgi bo`g`indagi talaffuz qilinadigan undoshni uzaytirish mumkin.

Masalan: Oh,je suis tranquille! [trãkil :]

Tilshunoslar fransuz tilida ajratuvchi urg`uning miqdorini har xil baholashadi. Ko`pincha ular urg`uning ikki xili:emotsional va intellektual turi haqida so`z yuritishadi.

E.F.Xaden ajratuvchi urg`uning o`ziga xos, yani har biri o`z akustik xarakteri va o`z funksiyasiga ega bo`lgan va fransuz tili urg`u sistemasining umumiy qismlaridan biri bo`lib hisoblangan sistemasi to`g`risida so`z yuritadi. Hozirgi kunda urg`u murakkab akustik hodisani ifoda etadi. Fransuz tilida urg`uli bo`g`inning ravon va aniq talaffuz qilinishi birlamchj ahamiyatga ega,chunki mana shu bo`g`ingina fransuz tilida fraza ritmni tartibga soladi.

Shuni ham inobatga olish joiz-ki, fransuz tilidagi “urg`uli bo`g`in “terminining o`zi kommunikatsiya jarayonida eng muhim o`rinda turadi. Urg`uli va urg`usiz bo`g`inlar pauza va melodik konturlarining nutq oqimida o`zaro munosabati va distributsiyalari ritmning fransuz, rus, ingliz va boshqa tillarga xos bo`lgan asosiy tavsiflarini yaratadi.

She`riy nutq ham o`zining alohida ritmik strukturasi ega, aynan shuning o`zi yoki sintaktik asoslar nazmini nasrdan farqlaydi. Ko`pchilik tillarda she`riy ritm

Xulosa

Barcha inson faoliyatlari singari nutq ham ritmik tendentsiyalar orqali boshqariladi. Ritmik shakllanish holati , poetik nutqda yaqqol namoyon bo'ladi. Ritm hodisasi xatto ilmiy prozada ham ko'rsatiladi.

Fransuz tilida ritm eng avvalo, kuchli(urg'uli) va kuchsiz (urg'usiz) bo'g'inlarning ketma-ketligiga asoslangan bo'ladi. M.Grammoning fikricha , ritm nutqning boshqa barcha tovush ifodalari kabi o'zining maxsus asosi va psixo-fiziologik mexanizmiga ega , ham bir inson o'z nutqida doimiy va osongina tushunarli bo'lgan o'zining shaxsiy ritmini namoyon qiladi. Fransuz tilida ritmni shakllantiruvchi birliklarning asosiysi bu – ritmik guruhdir.Ritmik guruh- umumiy bir ma'noni anglatuvchi va oxirgi bo'g'iniga urg'u oladigan so'zlar gurihidir. Fransuz tilida har bir ritmik guruh , odatda, urg'usiz bo'g'in bilan boshlanib ,urg'uli bo'g'in bilan o'z yakuniga yetadi. Demak, fransuz tilida ritm asosan , urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning o'zaro alternatsiyasi va ularning muntazam takrorlanishi natijasida yuzaga keladi.

J.Forning fikrlaridan kelib chiqadigan bo'lsak , gohida fonetik so'z deb ham ataluvchi ritmik guruh uning fonetik butunligini ta'minlovchi fonetik, grammatik va semantik xususiyatlarining uzviy birligidan tashkil topadi. So'zlarning urg'u birliklariga mujassamlashtiruvchi fonetik vositalar ichida melodiya asosiy ahamiyat kasb etadi. Ritmik guruh fraza boshida yoki ichida kelganda ritmik guruh ichidagi urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar orasida o'ziga xos qarama-qarshilik yuzaga keladi va natijada urg'uli bo'g'in birmuncha tonga ega bo'ladi. Uzun ritmik guruhlarda esa ikkinchi darajali urg'ular yuzaga keladi. Ular ritmik guruh oxiridan boshlab toq bo'g'inlarni ajratib aytishga xizmat qiladi va o'ziga xos ritmik strukturani hosil qiladi.

3.Akademik L.V.Sherbaning ta'kidlashicha , intonatsiya bir- birlari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini taqozo qiluvchi komponentlardan bo'lmish

melodiya, urg'u ritm, tembr va miqdor ko'rsatkichlarining o'ziga xos modulyatsiyalarini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab fonetik hodisadir. Ko'rib turganimizdek, urg'u ana shu komponentlaridan biridir. Urg'uli bo'lib eshtiladigan bo'g'in turli prosodik vositalar bilan ifodalanadi: intensivlik, asosiy ton chastotasi va miqdor o'zgarishlari bilan ifodalanadi. Nutqning parchalanishi va prosodik asosan bo'g'indan boshlanadi. Bo'g'in prosodik belgilar yuzaga keladigan eng kichik nutq birligi bo'libgina qolmay, balki so'z va fraza urg'ularini o'zida mujassamlashtiruvchi tayanch birlik ham hisoblanadi. L.B.Sherba o'zining urg'u to'g'risidagi maqolalaridan birida shunday deydi: „Ta'bir joiz bo'lib aytadigan bo'lsak, urg'uli bo'g'in ham eng kuchli, ham eng baland va cho'ziq bo'ladi”. Mazkur vositalarning aynan mana shunday tarkibi fransuz tili urg'usida ham kuzatiladi.

4.Fransuz tilida ritmik urg'uning akustik tabiati to'g'risida turli fikr-mulohazalar mavjud. T.Passi va M.Grammonllarning fikricha urg'uli bo'g'in boshqa urg'usiz bo'g'inga qaraganda kuchliroq aytiladi. Demak urg'uning to'n, miqdor va intensivliklardan iborat akustik parametrlari ichida intensivlik muhim ahamiyatga ega. P.Leon , P.Fushe, N.M.Bizovalar esa, urg'uli bo'g'in asosiy to'n chastatasining o'zgarishi orqali yuzaga keladi, deb takidlashadi. Bundan kelib chiqadi-ki, har bir ritmik urg'u olgan bo'g'in boshqalarga nisbatan avvalo, balandroq to'nda qolaversa, cho'ziq va kuchliroq bo'ladi. Ko'pchilikni tashkil qiluvchi uchinchi guruh olimlar (P. Deltar, J.Budro, A. Kristo, K. Barishnikova) o'zlarining olib borgan maxsus eksperimental –fonetik tadqiqotlari natijasida ritmik urg'uning fizik tabiatini biroz boshqacharoq aniqlash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Eksperiment natijalaridan kelib chiqqan holda ular fransuz tili ritmik urg'usining tabiati asosan cho'ziqlikdan iboratligini isbotlashdi.

Intonatsiya nutqdagi xis-hayajon tuyg'ularini ifodalash uchun ham hizmat qiladi. Xis-hayajonni ifodalash usullari intonatsiyaning struktura va

shakillari bilan o'zaro bir-biriga bog'liq bo'ladi, natijada bitta xis-hayajon tuyg'usini ifodalovchi intonatsiyaning turli tillardagi tiplari vujudga keladi. Bitta intonation holatning o'zi turli tillarda bir xil baholanmaydi. Tilshunoslikda intonatsiya ta'rifini ikki jihatga ajratish mumkin: supersegmental his-tuyg'uga xos bo'lgan neytral nutq va xis-hayojan tuyg'usini ifodalovchi til vositalari ta'rifi. Lekin bunday ta'riflar hozirgi kunda mavjud emas. Nutq oqimida ritmik urg'u intonatsiyaning tarkibida uning bir elementi sifatida amal qiladi. Shu mazmunda uni fraza urg'usi deb atasa ham bo'ladi. U intonatsiyaning u yoki bu ko'rinishidagi tarkibiga xilma-xilliklar bag'ishlangan holda kiradi. Xuddi shu fraza urg'usi boshqa turli urg'ular bilan uzviy aloqador nutq ritmini hosil qiladi.

5. Ko'pchilik fransuz fonetislarining ilmiy ishlarida biz shuni kuzatishimiz mumkin-ki, frazaga kirgan va ritmik guruhga birlashgan so'z, agar u oxirida bo'lmasa o'z urg'usini yo'qotib, oxirgi bo'g'inda turuvchi ritmik bo'g'inga ega bo'ladi. Urg'u bo'yicha qator monografiyalar muallifi R.Gard esa, fransuz tilida urg'uning ko'chuvchanligini ta'riflaydi va bu holat o'z navbatida aksent birliklarining elastikligini ta'minlashga e'tiborini qaratadi. Bu ma'noda P.Deltar ham fransuz tilida ritmik guruhning boshida turgan mustaqil so'zlar o'z urg'usini butunlay yo'qotmaydi deb hisoblaydi. G.Forning ta'kidlashicha, fransuz tilida urg'u bitta so'zga emas, balki so'zlar guruhiga tushadi. Aktsentuatsiya jarayonida barcha prosodik vositalar bir-biriga chambarchas bog'liqdir.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fransuz tilida asosiy urg'u so'zlar guruhiga tushsa ham, so'zlar o'z urg'usini butunlay emas, qisman yo'qotadi. Bu hodisa dezaktsentuatsiya hodisasi deb ataladi. Dezaktsentuatsiya hodisasiga ritmik guruhning boshidagi so'zlar uchraydi.

6. Ritmni sistema sifatida o'rganishga yondashish shuni ko'rsatadi-ki, struktura va substansiya bir-biriga uzviy bog'liq bo'lganligi sababli, ritm ham struktural

substansiyali hodisa hisoblanadi. Ritm nutqda o'ziga xos bo'lgan substratga ega, yani u ritmik strukturani belgilab beradi. Ritm muammosiga doir ko'pchilik ilmiy tadqiqotlarda eng avvalo, ritmni hosil qiluvchi fonetik vositalar va ularning ichki strukturasi to'g'risida fikr yuritiladi. Ritmni hosil qiluvchi ana shunday vositalaridan biri bu-sintagma.

7.Hozirgi kunga qadar sintagmani o'rganish, tilshunoslikda o'z maromiga yetganicha yo'q. Shu bilan birga sintagma fonetika uchun ham, sintaksis uchun ham muhim ahamiyatni kasb etuvchi birlikdir. Akademik L.V.Sherbaning aytishicha sintagma asosan, fonetik hodisadir. Mazkur fonetik birlik fraza yoki nutqning ritmik shakllanishida ritmik guruh bilan birga birlamchi ahamiyatga ega, chunki ritmni hosil qiluvchi ritmik guruhlar ketma-ketligi aynan sintagma ichida amal qiladi.

8.Intonatsiya tilning prosodik tarkibiga mansub bo'lgan murakkab hodisadir. Intonatsiya nutqda faqat umumiy ma'no munosabatlalarini yetkazib beradi. Har bir tilda intonatsiyaning unchalik ko'p bo'lmagan kombinatsion tiplaridan foydalaniladi va bir-biriga aloqador bo'lgan nutq intonatsiyaning muayyan xilma-xilligiga erishiladi.

Demak, intonatsiya har bir tilda mavjud prosodik bo'lib , ritmni uni tashkil qiluvchi komponentlaridan biridir.

Nutq oqimining urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarga ajratilishi, ularning o'zaro alternatsiyasi va ulardan hosil bo'lgan ritmik guruhlarining ketma-ket takrorlanishi ritmning fransuz tiliga xos bo'lgan asosiy xususiyatni tashkil qiladi. Aynan shu tilda gapirayotgan har bir shaxs, shunday nutq sharoitida o'ziga zarur bo'lgan nafaqat leksik birlik va Grammatik strukturani, balki u o'z nutqining umumiy ritmini hosil qiladi.

9.Urg'uni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan ekspremental tadqiqotlarning ko'rsatishicha, fraza strukturasi o'zining akustik tabiati va funksiyalariga ko'ra

urg'ularni turli xil turlarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bular fraza urg'ulari (bosh va ikkinchi darajali) modal-ekspressiv va logik tartibdagi urg'ulardir. Bularning o'ziga xos bo'lgan o'zaro variatsiyali munosabati frazaning ritmik strukturasi yaratishga xizmat qiladi. Ritm esa frazadagi urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning ma'lum vaqt intervalida muntazam takrorlanib kelishidan tashkil topadi. Urg'uli va urg'usiz birliklarning fraza doirasidagi mazkur alternatsiyasi fransuz tili aktsentologiyasiga xos bo'lgan aktsent strukturasi yuzaga keltiradi. Aynan mana shunday aktsent distributsiyasi va strukturasi fransuz tili aktsentologiyasini boshqa tillarnikidan tubdan farq qilishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. “Баркамол авлод –Ўзбекистон пойдевори”.- Тошкент: 1993.- 26 б
2. Андрейчикова Л.П., Убайдуллаев М.У., Юсупова Н.А. Француз тили фонетикаси .-Тошкент «Ўзбекистон», 1992 47-57 бетлар
3. Антипова Р.И. Ритмическая система английской речи М., 1984
4. Беликов А.П. Ритмическая организация текста- Тезисы докладов научно-методической конференции.- М., 1982
5. Бурчинский В.Н. Теоретическая фонетика французского языка : учебное пособие.- М. : Восток-Запад, 2006.стр. 73–85.
6. Бызова Н.М. Фонетическая природа ритмического ударения во французском языке.-М., 1984
7. Виллер М.А. Фонетика французского языка. -М., 1983 стр 130
8. Гордина М.В. Фонетика французского языка. -Ленинград, 1983
9. Гордина М.В. Фонетика французского язык. -С.-Петербург, 1997. стр10-17.
10. Кривнова О.Ф. Ритмо-ударная форма синтагмы в научном тексте.В.к.н. Тезисы докладов научно-методической конференции. -М., 1982.
11. Литкенс К.Я. Современные тенденции французского произношения . -М., 1985.
12. Малышева Н.И. Основные интонационные средства французской речи. -М.,1980
13. Рапанович Л.Н. Фонетика французского языка.-Москва, 1993

14. Рапанович А.Н. Фонетика французского языка. Курс нормативной фонетики и дикции. – М. : Высшая школа, 1980. стр. 69–81.
15. Соколова В.С. Фонетика французского языка. -М. Высшая школа 1983;
16. Соколова В.С. Фонетика французской разговорной речи .-М., 1990
17. Соколова В.С. Слово в потоке речи межуровневые связи романских языках -М.,1986
18. Убайдуллаев М.У. Хозирги замон француз тили назарий фонетикаси.Маърузалар матни.-Тошкент.2006
19. Федоров В.А. Теоритическая фонетика французского языка. - Воронеж,2008
20. Целях А.С., Евчик Н.С. Фонетика французского языка. -М. Высшая школа, 1986
21. Arrivé M., Gadet F., Galmiche M. La grammaire d'aujourd'hui .Guide alphabétique de linguistique française. -Paris « Flammarion »,1986 p -590
22. Carton F. Introduction à la phonétique française.- Bordas, 1974
23. Chigarevskaja N. Traité de phonétique française .-Moscou, 1982 p-171
24. Duchet J.L. La phonologie.- P.U.F. Que sais-je ?, 1980
25. Fonagy I. L'accent français : accent probabilitaire - In : L'accent en français contemporain., Studia phonetica,15- Montréal – Paris – Bruxelles, 1980
26. Fouché P. Traité de prononciation française.- P., 1993.
27. Martin Ph. Pour une théorie de l'intonation. -P., 1981
28. Passy P. Les sons du français. P. Etudes sur les changements phonétiques et leurs caractères généraux. - P., 1980

29. Rossi M. L'intonation, de l'acoustique à la sémantique.- Klincksieck, 1981

Lug'atlar :

1. Гак В.Г.,Ганшина К.А. Новый французско-русский словарь. –М: 1994.
2. Dictionnaire français-ouzbek .-Toshkent: 2006
3. Ibragimov H.,Mamadaliyev A. Fransuzcha-o'zbekcha lug'at .-Toshkent: 1998.
4. Lerond A. Dictionnaire de la prononciation. – Larousse, 1980
5. Le Petit Larousse. Dictionnaire encyclopédique .-Paris: 1993.
6. Pierre R. Dictionnaire des synonymes de la langue française. -Paris: 1995.
7. Rey A. (éd) Dictionnaire historique de la langue française .-Paris: 1998.

Internet saytlari :

1. www.google.fr
2. www.langage.ru
3. www.wikipedia.ru
4. www.translate.google.ru